Геологическое развитие сырдарьинской депрессии благоприятствует миграции и аккумуляции углеводородов в палеозойских коллекторах, чему могут свидетельствовать

наличие выходов битума, окисленной и “живой” нефти в естественных обнажениях. Кроме того, многими исследователями рассматривается сходство строения Сырдарьинской депрессии с Южно-Тургайской впадиной и Чу-Сарысуьской депрессией, в которых открыты месторождения нефти и газа. К тому же, в горных обрамлениях (Чаткал, Курама, Каратау), а также в Зеравшанских и Нурагинских хребтах, окружающих Сырдарьинскую впадину, среди палеозойских пород имеются многочисленные проявления битумов.




Рис.3. Типовой литолого-стратиграфический разрез центра юго-восточной части Сырдарьинской депрессии (составила Ахмедова Д.А., 2024г., по данным скважин Мирзачуль, Боймурод, Сырдарья, Чиназ, Янгиюль).

Дальнейшие перспективы нефтегазоносности Сырдарьинской депрессии связаны с верхнепалеозойским квази-платформенным комплексом. В этом направлении изученность находится на начальной стадии поисково-разведочных работ на нефть и газ.




Рис.4. Геологический разрез по линии Приташкентский прогиб-Чулийское поднятие-Арысский прогиб.

Результаты и выводы. Верхнепалеозойский комплекс Сырдарьинской депрессии представляет интерес, как перспективный на поиски залежей углеводородов исходя из следующих благоприятных условий для их формирования и размещения:

- геодинамическая обстановка пассивной континентальной окраины в течение девона и карбона способствовавшая образованию в условиях открытого шельфа морских осадочных толщ;

- наличие в разрезе палеозоя толщ карбонатных, карбонатно-терригенных и терригенно-карбонатных пород девонского и каменноугольного возраста с широким развитием коллекторов, среди которых имеются и рифовые образования, могут являться хорошими резервуарами для нефти и газа;

- наличие покрышек: мощная толща аргиллитов (C_{1s}-C_{1b}), галогенные отложения нижнего-среднего карбона, прослойки монолитных слабо трещиноватых известняков, прослойки сульфатов и сульфатизированных карбонатных пород, а также различные типы эффузивных пород;

- наличие прямых признаков нефтегазоносности палеозоя;

- наличие благоприятных структурно-тектонических условий в образованиях промежуточного структурного этажа благоприятствует на обнаружение в них скоплений нефти и газа.


В ближайшее десятилетие будет наблюдаться тенденция к увеличению объемов размещения геофизических и буровых работ целенаправленно на поиски и разведку ловушек нефти и газа в палеозойском комплексе пород. В пределах Сырдарьинской депрессии, с целью повышения эффективности производимых работ необходимо совершенствование методики полевых геофизических работ, обработки и интерпретации полученных данных, расширение комплекса геофизических методов.

Также необходимо бурение параметрических скважин с целью комплексного изучения геологического строения, литологической и электрометрической характеристики пород, стратиграфии разреза, коллекторов и их флюидонасыщенности для дальнейшей подготовки перспективных объектов под поисково-разведочное бурение.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Жолтаев Г.Ж. Теоретические основы оценки перспектив нефтегазоносности палеозойских осадочных бассейнов Казахстана // Известия НАН РК. Серия геология и технические науки. – 2018. – № 2. – С. 185–193.
2. Бигараев А.Б. Особенности геологического строения и перспективы нефтегазоносности Сырдарьи некоего осадочного бассейна. Задачи и виды дальнейших поисковых работ / А.Б.Бигарев /Ред. Б.М.Куандыков//Нефтегазоносные бассейны Казахстана и перспективы их освоения. — Алматы: Изд-во КОНГ, 2015.
3. Мордвинцев О.П. Перспективы нефтегазоносности докембрийских образований Среднесырдарьинской депрессии / О.П.Мордвинцев // Геология и минеральные ресурсы. — 2003. - №1.
4. Давыдов Н.Г. Геолого-геофизическое моделирование и перспективы нефтегазоносности Сырдарьинского бассейна Казахстана / Н.Г-Давыдов // Геология и охрана недр. - 2004. - № 3.
5. Холбаев, Б. М., Комилов, Б. А. У., & Ахмедова, Д. А. (2021). Мониторинг разработки реагентов-стабилизаторов к буровым растворам. *Проблемы науки*, (7 (66)), 13-16.
6. Холбаев, Б. М., Комилов, Б. А., & Ахмедова, Д. А. (2021). Современное состояние проблемы разработки реагентов-стабилизаторов к буровым растворам. *Academy*, (7 (70)), 15-18.
7. Холбаев, Б. М., & Якубов, Т. Б. (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ВЛИЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭКОЛОГО-МЕЛИОРАТИВНОГО СОСТОЯНИЯ НА УРОЖАЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР В АРИДНОЙ ЗОНЕ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 957-964.

UO‘K: 665.7:621.56

 10.70769/3030-3214.SRT.2.4.2024.56

TABIY GAZNI KIMYOVIY ABSORBSIYA USULIDA H₂S VA CO₂ DAN TOZALASHDA YUTUVCHI KOMPONENTLARNING TO‘YINISH BALANSI ME‘YORLARI



Saxatov Bahodir Gulmurodovich

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Neft va gaz ishi” kafedrasida dotsenti. Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Tabiiy gazni absorbsiya usulida tozalashda yutuvchi komponent sifatida aminlarning ishlatilishi keng samaradorlikka egadir. Aminlar tarkibida etanol radikalining ko‘payishi aminlarning suvli eritmasining oltingugurtli birikmalarni va korbanat kislota qoldig‘ini o‘ziga biriktirib olish qobiliyatini kengaytirib boradi. Ishlab chiqarishda absorbsiya jarayonida amin eritmasi va yutuluvchi gazlar o‘rtasidagi ekvivalent miqdorni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga egadir. Yutuvchi va yutuluvchi komponentlar orasidagi me‘yoriy muvozanat buzilishi texnologik rejimning buzilishiga olib keladi.

Usul va materiallar. Amin tarkibida etanolning radikali bilan metil radikali bo‘lishi, aminning suvli eritmasining H₂S va CO₂ o‘ziga biriktirib olishni yanada kengaytiradi. Ekvivalent miqdor: 1:1.5 nisbatda reaksiyaga kirishadi. Ushbu reaksiyaga asoslanib amin eritmasi va tabiiy gazning bir-biri bilan uchrashish fazasini: 1:1.5 miqdorda olib boorish kerak. Tarelkalar tanlanishda suyuqlik va gazning sarfiy hisobiga asosiy e‘tibor qaratiladi.

G‘alvirsimon tarelklarda tarelka ustida hosil qilinayotgan suyuqlik sathi miqdori me‘yorini tanlash, tanlangan suyuqlik sathi me‘yorini o‘zgarmasligi uchun absorberga berilayotgan suyuqlik sarfini bir xilda ta‘minlash muhim ahamiyatga egadir. Desorber kalonnasi ichki qismi qalpoqchali tarelklardan jihozlashda asosan bosim farqini bir me‘yorda ta‘minlashda qaratilgan bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Amin, etanol, metil, radikal, ekvivalent, absorber, reglament, tarelka, g‘alvirsimon.

НОРМЫ БАЛАНСА НАСЫЩЕНИЯ ПОГЛОЩАЮЩИХ КОМПОНЕНТОВ ПРИ ОЧИСТКЕ ПРИРОДНОГО ГАЗА ОТ H₂S И CO₂ МЕТОДОМ ХИМИЧЕСКОЙ АБСОРБЦИИ

Сахатов Баходир Гулмуродович

Доктор философии по техническим наукам, Доцент кафедры “Нефтегазовое дело” Каршинский инженерно-экономический институт, Карши, Узбекистан

Аннотация. Использование аминов в качестве абсорбирующих компонентов при абсорбционной очистке природного газа имеет широкий диапазон эффективности. Увеличение этанольного радикала в составе аминов увеличивает способность водного раствора аминов присоединять к себе соединения серы и остаток углекислоты. Важно правильно подобрать эквивалентное количество раствора амина и поглощенных газов в процессе абсорбции на производстве. Нарушение нормативного баланса между поглощающими и поглощаемыми компонентами приводит к нарушению технологического режима.

Метод и материалы. Наличие в составе амина радикала этанола и метильного радикала дополнительно усиливает присоединение водного раствора амина к H_2S и CO_2 . Эквивалентное количество: реагирует в соотношении 1:1,5. В результате этой реакции раствор амина и природный газ встречаются друг с другом в соотношении 1:1,5 надо брать При выборе плит основное внимание уделяется расходу жидкости и газа.

Важно подобрать норму количества уровня жидкости, образующегося на тарелке в сферических тарелках, чтобы обеспечить равномерный расход жидкости, подаваемой в абсорбер, чтобы выбранный уровень жидкости не менялся. Внутренняя часть колонны-десорбера оснащена тарелками с колпачком и в основном предназначена для обеспечения равномерного перепада давления.

Ключевые слова: Амин, этанол, эквивалент, метил, радикала, абсорбер, регулирующая пластина, шаровидная.

STANDARDS FOR THE SATURATION BALANCE OF ABSORBING COMPONENTS IN THE PURIFICATION OF NATURAL GAS FROM H_2S AND CO_2 BY THE METHOD OF CHEMICAL ABSORPTION

Sakhatov Bahodir Gulmurodovich

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Associate Professor of the Department of Oil and Gas Business Karshi Engineering and Economic Institute, Karshi, Uzbekistan

Abstract. The use of amines as absorbent components in the absorption purification of natural gas has a wide range of efficiency. An increase in the ethanol radical in the amine composition increases the ability of the aqueous solution of amines to attach sulfur compounds and the remainder of carbon dioxide. It is important to correctly select the equivalent amount of amine solution and absorbed gases in the absorption process at the plant. Violation of the normative balance between the absorbing and absorbed components leads to a violation of the technological mode.

Method and materials. The presence of ethanol radical and methyl radical in the amine additionally enhances the addition of the aqueous amine solution to H_2S and CO_2 . Equivalent amount: reacts in a ratio of 1:1.5. As a result of this reaction, the amine solution and natural gas meet each other in a ratio of 1:1.5 should be taken When selecting plates, the main attention is paid to the flow rate of liquid and gas. It is important to select the rate of the amount of liquid level formed on the tray in spherical trays to ensure a uni-

form flow rate of liquid supplied to the absorber so that the selected liquid level does not change. The inside of the desorber column is equipped with capped trays and is mainly designed to ensure a uniform pressure drop.

Keywords: Amine, ethanol, methyl, radical, equivalent, absorber, control plate, spherical.

Kirish. Tabiiy gazni absorbsiya usulida tozalashda yutuvchi komponent sifatida aminlarning ishlatilishi keng samaradorlikka egadir. Aminlar tarkibida etanol radikalining ko'payishi aminlarning suvli eritmasining oltingugurtli birikmalarni va korbanat kislotaga qoldig'ini o'ziga biriktirib olish qobiliyatini kengaytirib boradi. Amin tarkibida

etanolning radikali bilan metil radikali bo'lishi, aminning suvli eritmasining H₂S va CO₂ o'ziga biriktirib olishni yanada kengaytiradi. Amin tarkibida metil va etanol radikallari bir-birovi bilan ichki tortishsish kuchlari ta'sirida radikallardagi vadarod atomlari va uglerod atomlariv orasidagi bog' zaiflashishga olib keladi. Tashqi tomondan



1-jadval

Gazni tozalash jarayonining ko'rsatkichlari (O'rta buloq va Shimoliy Muborak konlari uchun)

Ko'rsatkichlar	O'rta buloq gaz koni I-bosqich tozalash	O'rta buloq gaz koni II-bosqich tozalash	Shimoliy muborak koni
"Xom" gaz bo'yicha ishlab chiqarish quvvati (1 tizimniki), ming m ³ /soat	50-60	50-60	70-90
Regenerirlangan absorbent sarfi, m ³ /soat	200-240	90-120	100-130
Toza gazdagi miqdori, % hajmiy: H ₂ S CO ₂	5-5.5 4.3-5.0	4000 (mg/m ³)	0,3-0,4 1,3-1,4
Tozalangan gazdagi miqdori: H ₂ S, mg/m ³ CO ₂ , % Hajmiy	4000 5,1-5,4	20 0,1	20 0,1
Bosim, MPa: absorberda desorberda	0,15 50-60	5,1-5,4 0,15	4,6-5,4 0,15
Harorat °C: absorbentniki "xom" gazniki	20-30 107	50-60 20-30	50-60 20-30
Desorber yuqorisida desorber tubida	119	108 119	110 119
Adsorberdagi nordon gazlar miqdori, mol/mol MEA ga:	0,02-0,04	0,02-0,03	0,01-0,03
Regenerirlanganda H ₂ S ∑ H ₂ S va SO ₂ To'yinganda H ₂ S ∑ H ₂ S va SO ₂	0,15-0,2 0,2-0,25	0,11-0,15 0,06-0,07	0,13-0,19 0,06-0,1
Absorberdagi MEA miqdori, % mass.	14-19	6-10	8-12

boshqa erkin kislota qoldig'i ta'sirida ushbu bog' oson uzilib, vadorod o'z o'rnini kislota qoldig'iga beradi. Shu jarayon sodir bo'lishiga asoslangan holda amin tarkibida metil va etanol radikallari bo'lishi uning yutuvchanlik xususiyatini oshiradi. Albatta bu jarayonga asoslanib aminlarni absorbsiya jarayonida keng ko'lamda ishlatib kelinmoqda.

Usul va materiallar. Absorbsiya jarayonida gaz tarkibidagi H_2S va CO_2 ning miqdorini hisobga olgan holda aminlarning suvli eritmasi va yutuluvchi gazlarning ekvivalent miqdorini belgilash kerakdir. Ishlab chiqarishda absorbsiya jarayonida amin eritmasi va yutuluvchi gazlar o'rtasidagi ekvivalent miqdorni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga egadir. Ko'p xollarda ishlab chiqarish korxonalarida absorbsiya jarayonlari amin eritmasi va gazlar orasida olib borish talab etiladi. Bunday ko'p hajmda olib boriladigan absorbsiya jarayonida yutuvchi va yutuluvchi komponentlarning ekvivalent miqdorlarini bir xil me'yorda saqlab turish tuli qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Yutuvchi va yutuluvchi komponentlar orasidagi me'yoriy muvozanat buzilishi texnologik rejimning buzilishiga olib keladi. Amin eritmasi bilan H_2S va CO_2 gazlari orasida



$CO_2 + R_3N$ (to'g'ridan-to'g'ri reaksiya yo'q);



$H_2CO_3 + 2R_3N = (R_3NH)_2CO_2$ (tez sodir bo'ladi);

$H_2CO_3 + R_3N \rightarrow R_3NH^+ + HCO_3^-$ (tez sodir bo'ladi).

Ekvivalent miqdor: 1:1.5 nisbatda reaksiyaga kirishadi. Ushbu reaksiyaga asoslanib amin eritmasi va tabiiy gazning bir-biri bilan uchrashish fazasini: 1:1.5 miqdorda olib

borish kerak. Hozirgi kunda ishlab kelayotgan gazni qayta ishlash zavodlarida tozalanmagan tabiiy gaz tarkibida H_2S ning miqdoriga qarab, tozalanmagan tabiiy gaz tarkibida H_2S ning miqdori 1% gacha bo'lganda, amin eritmasi miqdori gaz bilan reaksiyaga kirishish ekvivalenti 1:1.5 nisbatda, tozalanmagan tabiiy gaz tarkibida H_2S ning miqdori 1% yuqori 4-5% gacha bo'lganda ekvivalent miqdori 1:1,75 nisbatda olib boriladi. Tabiiy gazni oltin-gugurtli birikmalardan absorbsiya jarayoni orqali tozalashda 150 ming m^3 /soat gazga 225 m^3 /soat amin eritmasi purkab turiladi. Tarkibida oltin gugurtli birikmalar miqdori 1% yuqori 4-5% bo'lganda 150 ming m^3 /soat gazga 262,5 m amin eritmasi absorbsiya jarayonida amin eritmasi va gazning uchrashish fazasini qancha keng miqyosida tashkil etilsa, absorbsiya jarayoni shuncha yaxshi olib boriladi.

Absorber kolonnasi ichki jihozlarini tanlashda gaz va suyuqlik uchrashish yuzasini kengaytirish va suyuqlik o'ziga gazni yutib olgandan so'ng keyingi bosqich gaz va suyuqlik uchrashish yuzasini kamaytirmagan holda kolonnaning paski qismiga yo'nalishini ta'minlovchi jihozlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natijalar va muhokama. Ishlab chiqarishda gazni qayta ishlashda absorbsiya jarayoni ko'p miqdorda gaz va suyuqlikni bir vaqtda reaksiyaga kirishishini talab qiladi. Ushbu jarayonda reaksiyaga quyidagi fizik parametrlarning o'zgarishi salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- kolonnaga berilayotgan amin eritmasi harorati $55^{\circ}C - 63^{\circ}C$ oralig'ida pasayishi yoki ko'tarilib ketishi.

- kolonnaga berilayotgan amin eritmasi bosimi, gaz bosimidan 10% miqdorda yuqori berilishida bosim tushib ketishi.

- kolonnaga berilayotgan amin eritmasi miqdori (gazning tarkibidagi H_2S ning miqdoriga) qarab 1:1,5 yoki 1:1,75 nisbatdan kam yoki ko'p bo'lishi.

- kolonnaga tozalanilayotgan gazning sarfi, kolonnaga berilayotgan amin eritmasi sarfiga ($H_2S < 1\%$) 1:1,5, ($H_2S > 1\%$) 1:1,75 nisbatda bo'lishida gaz sarfining ko'payishi.

Yuqoridagi fizik parametrlarni texnologik reglament asosida saqlab turish uchun ko'p miqdorda ishchi kuchi, korxonaga uchun iqtisodiy tomonlama ko'p sarf-xarajat, texnologiyada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfning oshish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Ushbu holatlarning oldini olish va absorbsiya jarayonini texnologik rejim asosida olib borishni osonlashtirish korxonaga uchun barcha sarf-xarajatlarni va muammolar yechimi hisoblanadi.


Absorbsiya jarayonida uchrashish sirt yuzasini kengaytirish uchun, absorber kolonnasi unga berilayotgan gaz tarkibi, gaz bosimi, gaz harorati, gaz sarfi va absorbsiya jarayonida qatnashayotgan suyuq yutuvchining tarkibi, bosimi, harorati, sarfidan kelib chiqib tarelkalar tanlanadi.

Tarelkalar tanlanishda suyuqlik va gazning sarfiy hisobiga asosiy e'tibor qaratiladi.


G'alvirsimon tarelkalarda hosil bo'ladigan suyuqlik sathining belgilangan miqdorini tanlash va uni barqaror ushlab turish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun absorberga berilayotgan suyuqlik sarfi bir xil ta'minlanishi kerak. Tarelkalar ustida hosil bo'lgan suyuqlik gazni yutib to'yinganidan keyin, pastki tarelkaga o'tganda, absorberga purkalayotgan yangi toza suyuqlik bilan kamroq aralashishi lozim. Bu esa yuqori va pastki tarelkalarni bog'lovchi yo'lning o'lchamlariga hamda absorberga berilayotgan suyuqlik sarfiga bog'liq bo'ladi. G'al-

virsimon tarelkalar absorber ichida qancha ko'proq joy egallasa, suyuqlik va gazning uchrashish yuzasi shuncha katta bo'ladi. Ushbu jarayonda to'yingan suyuqlik keyingi tarelkaga o'tishida, oquv qismi uchun kamroq joy qoladi, natijada suyuqlik harakati sekinlashadi. Bu holat kolonna ichida suyuqlik sathining ko'tarilishiga olib keladi.

Suyuqlik sathining ko'tarilishi tarelkalar orasidagi bosim farqining oshishiga sabab bo'ladi, natijada tarelkalar ustidagi sath ortib ketadi. Buning oqibatida yutilishi kerak bo'lgan gazning miqdori tarelkadagi suyuqlikka nisbatan kam bo'lib qoladi. Shunday qilib, ortiqcha toza suyuqlik hosil bo'ladi va bosim farqining o'zgarishi tufayli suyuqlikda ko'piklanish jarayoni yuzaga keladi.



1-rasm. Qalpoqchali tarelka.



2-rasm. G'alvirsimon tarelka.

Hosil bo'lgan ko'piklanish bosim farqini yanada oshiradi va desorbsiya jarayoni buzilishiga olib keladi. Shu sababli desorberga berilayotgan suyuqlik sarfi aniq hisob-

kitoblarga tayangan holda olib boriladi.

Xulosa. Desorber kalonnasi ichki qismi qalpoqchali tarelkalardan jihozlashda asosan bosim farqini bir me'yorda ta'minlashda qaratilgan bo'ladi. Qalpoqchali tarelkalar bosim farqini bir me'yorda saqlab, suyuqlik sathidan o'tayotgan gazning sarfini ham bir xilda bo'lishini ta'minlaydi. Qalpoqchali ta-


relkali absorberlarda suyuqlik va gazning sarfiy me'yorlarini tanlashda kolonnaga berilayotgan gazning bosimi va suyuqlik bosimi farqlari hisobga olinadi. Bu jarayonda kolonnaga berilayotgan suyuqlik bosimi gaz bosimidan 10% yuqori bosimda beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абидов Б., Азимов О.Ф., Абдукаримова С., Бадриддинова Ф.- Углеводородли газлар технологияси. Тошкент-2007 йил.
2. А.И. Скобло, Ю.К. Молоканова, А.И. Иладимиров, В.А. Щелкунов – процессы и аппараты нефтегазо-переработки и нефтехмии.–М.: Нефдра. 2000 год.
3. Азимов О.Ф., Агзамов Ш.К.-Табиий газни ва газокондентсатини қайта ишлаш машина ва жихозлари. Тошкент-2008 йил.
4. Н.Р. Юсупбеков, Х.С. Нурмухамедов, З.Г. Зокиров Кимёвий технология асосий жараён ва курилмалари, Т.: «Шарк» 2003. 644 б.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA QURILISH
ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО
CHEMICAL TECHNOLOGY AND CONSTRUCTION

UO'K: 622.3

 10.70769/3030-3214.SRT.2.4.2024.37

METALLARNI KORROZIYADAN HIMOYALASHDA ALIFATIK
AMINONTRIL HOSILALARINI QO'LLASH



Ataqulova Dilbar Dusmurodovna

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: ataqulovadilbar364@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada nordon tarkibli gazlarni tozalash qurilmalarida vodorod sulfidli yorilishli korroziyani oldini olish uchun muhim tadqiqotlar ko'riladi. Korroziya jarayonlarini faollashtiruvchi omillarga qarshi kurashishda amin va nitril guruhlari o'z ichiga olgan organik birikmalarni sintezlash orqali olingan ingibitorlarning ta'siri o'rganiladi. Ushbu tadqiqotda, ingibitorlarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi va ularning korroziya jarayonlarida qanday samarali himoya ta'sirini ko'rsatishi, zamonaviy fizik-tadqiqot usullari yordamida batafsil aniqlanadi.

Kalit so'zlar: nordon tarkibli gazlar, ingibitor, korroziya, agressiv muhit, amino va nitril guruhlari.

ПРИМЕНЕНИЕ АЛИФАТИЧЕСКИХ ПРОИЗВОДНЫХ
АМИНИОНИТРИЛА ДЛЯ ЗАЩИТЫ МЕТАЛЛОВ ОТ КОРРОЗИИ

Атакулова Дилбар Дусмуродовна

Доцент Университета экономики и педагогики, Қарши, Ўзбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются важные исследования по предотвращению коррозии, вызванной водородсульфидным разложением, в установках очистки кислых газов. Изучается влияние ингибиторов, полученных синтезом органических соединений, содержащих аминогруппы и нитрилы, в борьбе с факторами, способствующими коррозионным процессам. В исследовании подробно определяется химический состав и структура ингибиторов, а также их эффективность в защите от коррозии с использованием современных физико-исследовательских методов.

Ключевые слова: кислые газы, ингибитор, коррозия, агрессивная среда, амино и нитрильные группы.

APPLICATION OF ALIPHATIC AMINONITRILE DERIVATIVES IN THE PROTECTION OF METALS FROM CORROSION

Ataqulova Dilbar Dusmurodovna

Associate Professor at the University of Economics and Pedagogy, Karshi, Uzbekistan

Abstract. This article examines important research aimed at preventing hydrogen sulfide-induced corrosion in sour gas treatment facilities. The study focuses on the effects of inhibitors synthesized from organic compounds containing amino and nitrile groups in combating factors that facilitate corrosion processes. The research details the chemical composition and structure of these inhibitors, as well as their effectiveness in protecting against corrosion using modern physical research methods.

Keywords: acid gases, inhibitor, corrosion, aggressive environment, amino and nitrile groups.

Kirish. Bugungi kunda jahon sanoati yuqori sur'atlarda rivojlanib borayotgan mamlakatlarning neft va gazni qayta ishlash sanoat qurilmalarida vujudga keladigan korrozion oqibatlarini kamaytirishda ingibitorlar sintezining yangi usullari, texnologiyalarini takomillashtirish, ekologik talablarga mosligini ta'minlash maqsadida turli tarkibli ingibitor va ularning kompozitsiyalarini olish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mavjud xomashyo resurslaridan foydalanib, metallar korroziyasiga qarshi yuqori texnik xususiyatlarga ega bo'lgan ingibitorlar va antikorrozion qoplamalar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda metallar korroziyasiga qarshi ingibitor va antikorrozion qoplamalar ishlab chiqarish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda.




Adabiyotlar tahlili va metodlar. Gazlarni H_2S va CO_2 dan tozalash quyidagi xususiyatlarga asoslangan. H_2S va CO_2 suvda eriganda dissotsiyalanib kuchsiz kislota hosil qiladi. Aminlar esa kuchsiz asosdir. Aminlar nordon gazlar bilan reaksiyaga kirishganda tuzlar hosil bo'ladi va

shuning hisobiga gazlar tozalanadi. Hosil bo'lgan tuzlar yuqori haroratda tez parchalanib ketadi. Aminning tuzilishidan qat'iy nazar, H_2S quyidagi tenglamada ko'rsatilganidek, birlamchi, ikkilamchi yoki uchinchi darajali amin bilan to'g'ridan-to'g'ri proton uzatish reaksiyasi orqali amin gidrosulfidini hosil qilish uchun tez reaksiyaga kirishadi:




Amin eritmasi bilan karbonat angidrid gazi o'rtasidagi reaksiya murakkabroq, chunki karbonat angidrid gazi ikki xil mexanizm orqali reaksiyaga kirishadi. Karbonat angidrid gazi suvda eritilganda gidrolizlanib, karbonat kislota hosil qilib, bu esa, o'z navbatida, asta-sekin karbonat kislota ioniga ajraladi.

Karbonat kislota ioni esa keyinchalik amin bilan kislota-asos reaksiyasiga kirishadi va quyidagi tenglamada ko'rsatilgan umumiy reaksiya hosil bo'ladi:



Tabiiy gazlarni monoetanolamin eritmasi yordamida nordon gazlardan tozalash 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Tabiiy gazlarni monoetanolamin eritmalari bilan tozalash texnologik sxemasi.

I-tozalanadigan gaz; II-tozalangan gaz; III-ekspanzer gazi; IV- nordon gaz; V-suv bug'i; 1-absorber; 2,9-nasoslar; 3,7-sovutgichlar; 4-ekspanzer; 5-10 issiqlik almashinuvchilar; 6-desorber; 8-separator; 11-qayta tiklangan amin uchun sig'im.

Tozalanadigan gaz 7 MPa bosim va 32-35°C oralig'idagi haroratlarda absorberning (1) pastki qismidan uzatiladi va monoetanolamin eritmasi bilan ta'sirlashadi. Tozalangan gaz absorberning yuqori qismidan chiqadi. Monoetanolamin eritmasi nordon komponentlar bilan to'yinadi va absorber pastki qismidan gorizont separator orqali filtdan va issiqlik almash-tirgichdan (80 – 105°C haroratlarda) o'tgan-dan so'ng desorberga (6) regeneratsiya uchun uzatiladi. Monoetanolamin eritmasi desorber qurilmasida 120 – 130°C harorat-larda nordon komponentlardan suv bug'i yordamida regeneratsiyalanadi. Bug'-gazli aralashma desorber qurilmasining yuqori qismidan chiqib kondensator sovutgichda sovutiladi va suyuq fazalarga ya'ni aminli eritmaga kondensatlanadi. Kondensatordan chiqqan nordon komponentlar va konden-

satlar aralashmasi separator (8) ga uzatilib fazalarga ajraladi. Nordon komponentlar separator (8) qurilmadan chiqarib fakelga yuboriladi, kondensat esa desorber (6) ga qaytib nasos orqali uzatiladi. Mono-etanolamin eritmasi regeneratsiyasi uchun zaruriy issiqlik suv bug'i yordamida reboylardan olinadi. Regeneratsiya qilingan mo-noetanolamin eritmasi issiqlik almashinish qurilmasiga uzatiladi. Keyinchalik havoli sovutgichga sovutilib, absorber qurilmasiga qayta yuboriladi [1; 101–108-b].

Natijalar. Ushbu maqolada molekulasi tarkibida bir nechta azot atomi tutgan 2,7-dimetil-2,7-ditsiano-3,6-diazaoktan (MAD) va 2,8-dimetil-2,8-ditsiano-3,7-diazanonan (MAD-20) va 2,9-dimetil-2,9-ditsiano-3,10-diazadekan (MAD-21) molekularini korroziya ingibitori sifatida o'rganish uchun ushbu birikmalarning sintezi amalga oshirildi.

MAD turli ingibitorlarni sintezlashning umumiy usuli. Magnit aralash-tirgich bilan jihozlangan 100 ml hajmli tubi yassi kolbaga (0,01 mol) yoki 0,6 g/mol etilendiamini ($\rho=0,899$ g/30 ml geksanda eritib olindi va kolbaga joylandi. So'ngra ushbu eritma intensiv ravishda aralash-tirib turildi. Aralashmaning ustiga 0,170 g/mol asetonsiangidrinni ($\rho=0,932$ g/sm³) tomizgich voronkasi yordamida tomchilatib turgan holda xona haroratida 15 minut davomida qo'shildi. Shundan so'ng reaksiyon aralashma 2-2,5 soat davomida xona haroratida yana aralash-tirildi. Hosil bo'lgan mahsulotni identifikatsiya qilish uchun vakum ostida dastlab erituvchi haydab olindi. Shundan keyin reaksiya mah-suloti haydab olindi. Ushbu reaksiyadagi MAD ingibitorining unumi 89% ni (6,6 g) tashkil etadi. Olingan modda kristall modda bo'lib, organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Shuningdek, iliq suvda biroz yaxshi sovuq suvda esa dastlab emulsiya hosil qiladi va keyinchalik erib shaffof tiniq eritmani hosil qiladi. Reaksiyaning borishi va uning tozaligi yupqa qatlamli xromatografik usulda nazorat qilindi. Uning suyuqlanish harorati $T_{\text{suyuq}}=53-55^{\circ}\text{C}$, $R_f = 0,5$ (benzol (2): aseton (1), IQ - spektrlari: CN 2220 sm^{-1} , NH 2988 sm^{-1} , ^1H PMR-spektri (8,m.u.)1.40 (s,6H, -(CH₃)₂),2.74 (m,4H,N-CH₂CH₂-N). [2; 16-19 b].

Muhokama. MAD shifri ostida belgilangan ingibitor agressiv muhit sifatida tanlangan 15%-li H₂SO₄ eritmasida 100 mg/l miqdorida 24 va 48, soat vaqt oralig'idagiga nisbatan 96 soat vaqt oralig'ida yuqori ingibitorlik xossalarini 93,46-96,78 % namoyon qilganligi aniqlandi (1-Jadval).


1-jadval

MAD ingibitorining 15 % H₂SO₄ eritmasida 20 °C haroratdagi samaradorlik darajasi

Ingibitor shifri	Ingibitor miqdori, mg/l	Vaqt, soat	15% H ₂ SO ₄	
			K $\frac{\text{g}}{\text{m}^2 \cdot \text{s}}$	Z%
MAD	100	24	1,81	93,46
		48	0,87	95,70
		96	0,95	96,78
	250	24	0,85	95,19
		48	0,91	96,20
		96	0,92	96,91
	500	24	0,45	98,30
		48	0,36	98,55
		96	0,39	98,58

Ushbu ingibitorning 250 mg/l miqdoridagi konsentratsiya va 15%-li H₂SO₄ muhitida 24 soat, 48, soat va 96 soat vaqt oralig'idagi korroziyani himoyalash samaradorligi ko'rsatkichlari 95,19% dan 96,91% gacha o'zgarganligini ko'rish mumkin. Xuddi shu ingibitorning 500 mg/l miqdoridagi konsentratsiya va 15 %-li H₂SO₄ muhitida 24 soat, 48, soat va 96 soat

vaqt oralig'idagi korroziyani himoyalash samaradorligi ko'rsatkichlari esa 98,30% - 98,58% gacha o'zgarganligini ko'rish mumkin. Aytib o'tish joizki ingibitorning konsentratsiyasi oshishi bilan uning metallarni himoyalash samaradorligi ham ortadi. Ko'pgina tadqiqotlarning ko'rsatishicha, metallarni korroziyadan himoyalashda ingibitorning korroziyaga bo'lgan ta'siri vaqt bo'yicha bir xil emasligini ko'rsatadi. Korroziya jarayoni mexanizmiga ko'ra, dastlab agressiv hisoblangan korroziya muhitda metallning korroziyalanish tezligi ma'lum bir muddatlarda ortadi va vaqt o'tishi bilan ingibitorning ta'siri natijasida korroziya jarayonining borishi sezilarli darajada pasayadi. Quyidagi 2-rasmda ushbu MAD turli ingibitorning konsentratsiya va vaqt bo'yicha metallarni korroziyadan himoyalash samaradorligi diagrammasi keltirilgan. Ushbu 2-rasmda keltirilgan MAD ingibitorning konsentratsiya va vaqt bo'yicha metallarni korroziyadan himoyalash samaradorligi diagramma holatidan ham ko'rinib turibdiki, eng yaxshi natija MAD shifri ostida belgilangan ingibitorning 500 mg/l miqdoridagi konsentratsiyada 15%-li sulfat kislotada 96 soat vaqtda ekanligi aniqlandi [3; 938-942-b].



2-rasm. MAD ingibitorining 20°C haroratdagi 15% H₂SO₄ eritmasida ingibirlash darajasining konsentratsiyaga va vaqtga bog'liqlik diagrammasi.

Xulosa. Ushbu konsentratsiyalarda vaqtning ortib borishi bilan korroziyalanish tezligining pasayishi yoki ingibitorning


ingibirlash samaradorligining ortib borishini ko'rishimiz mumkin. Eng yaxshi natijani ushbu MAD shifri ostidagi ingibitor 500 mg/l miqdoridagi konsentratsiyada namoyon qildi. Grafik tasviridan ko'rishimiz mumkinki, 96 soat vaqt oraliqlarida ingibi-

torning ingibirlash samaradorligi unchalik katta sondagi ko'rsatkichlarga ega bo'lmagan. Demak, ingibitorning ingibirlash samaradorligi ma'lum vaqt o'tgandan keyin o'zgarmas kattalikka teng bo'lib qolishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arthur J. Kidnay William R. Parrish Fundamentals of Natural Gas Processing 2006.420 P.
2. Дилбар Дустмуродовна Атакулова, Мингикул Жумагулович Курбанов, Абдурахад Абдурахимович Кодиров ИЗУЧЕНИЕ ИНГИБИРУЮЩИХ СВОЙСТВ 2, 7-ДИМЕТИЛ-2, 7-ДИЦИАНИД-3, 6-ДИАЗАОКТАНА Universum: технические науки 5-4 (86). 16-19.
3. Атакулова, Д. Д., & Абдувалиев, С. А. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНГИБИТОРОВ КОРРОЗИИ МЕТАЛЛОВ. Экономика и социум, (12 (115)-1), 938-942.
4. Атакулова Д.Д. ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ИНГИБИТОРОВ КОРРОЗИИ НА ОСНОВЕ АЛИФАТИЧЕСКИХ АМИНОНИТРИЛОВ ДЛЯ КОРРОЗИИ НЕФТЕГАЗОВОДЯНОЙ СРЕДЫ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023. 12(117).
5. Д.Атакулова, М.Муродов. Alifatik aminonitril hosilalarini metallarni korroziyadan himoyalashda qo'llash. uz-Topical Issues of Technical Sciences, 2024 - techscience.uz Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Page 1 TECH SCIENCE ISSN 3030-3702.

UO‘K: 528.44:332.35

 10.70769/3030-3214.SRT.2.4.2024.49

GEOAXBOROT DASTURLARI ASOSIDA DAVLAT KADASTRLARI MA'LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISHNING YANGICHA YECHIMLARI



Fayziyev Shohrux Shamsi o'g'li

Xalqaro innovatsion universiteti, "Yer kadastr va kommunal xo'jaligi" kafedrasini mudiri, Texnika fanlari falsafa doktori, (PhD) dotsent, Qarshi, O'zbekiston



Fayziyev Shaxboz Safar o'g'li

Xalqaro innovatsion universiteti, "Yer kadastr va kommunal xo'jaligi" kafedrasini o'qituvchisi, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada geoaxborot tizimlari asosida kartalashtirishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda bino va inshootlar davlat kadastr ishlarini olib borish orqali joy ko'rsatkichlarining hozirgi holati, dinamikasi va o'zgarishini ta'minlovchi tizimini yaratish, optimallashtirish va oqilona foydalanishda hamda bino va inshootlar davlat kadastr ishlarining ish hajmi va unumdorligi muammolarini hal qilishda xizmat qilishi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: bino va inshoot, davlat kadastrlari, geoaxborot tizimlari, aholi punkti, qishloq xo'jaligi, kadastr, rekonstruksiyalash, GAT (geoaxborot tizimlari), kompleks, punkt, Milliy geoaxborot, elektron bazasini yaratish, geovizuallashtirish, geoma'lumotlar bazasi.

СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ БАЗЫ ДАННЫХ ГОСУДАРСТВЕННЫХ КАДАСТРОВ НА ОСНОВЕ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ ПРОГРАММ

Файзиев Шохрух Шамси угли

Заведующий кафедрой «Земельный кадастр и коммунальное хозяйство» Международного инновационного университета, доктор философии (PhD) по техническим наукам, доцент, Карши, Узбекистан

Файзиев Шахбоз Сафар угли

Преподаватель кафедры «Земельный кадастр и коммунальное хозяйство» Международного инновационного университета, Карши, Узбекистан

Аннотация. В статье описано создание, оптимизация и рациональное использование системы, обеспечивающей текущее состояние, динамику и изменение показателей местоположения путем проведения государственных кадастровых работ зданий и сооружений с использованием современных картографических технологий на основе геоинформационных систем, а также объем работ государственных освещаются кадастровые работы зданий и сооружений, а также такие вопросы, как обслуживание при решении проблем производительности.

Ключевые слова: здания и сооружения, государственные кадастры, геоинформационные системы, населенный пункт, сельское хозяйство, кадастр, реконструкция, ГАТ (геоинформационные системы), комплекс, точка, Национальная геоинформация, создание электронной базы данных, геовизуализация, база геоданных.

INNOVATIVE SOLUTIONS FOR CREATING STATE CADASTRE DATABASES BASED ON GEOINFORMATION SOFTWARE

Fayziev Shohrukh Shamsi ogli

Head of the "Land Cadastre and Public Utilities" Department at
the International Innovation University, Doctor of Philosophy
(PhD) in Technical Sciences, Associate Professor, Karshi,
Uzbekistan

Fayziev Shakhboz Safar ogli

Lecturer of the "Land Cadastre and Public Utilities" Department
at the International Innovation University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. The article describes the creation, optimization and rational use of a system that provides the current state, dynamics and changes of location indicators by conducting state cadastral works of buildings and structures using modern mapping technologies based on geoinformation systems, and the scope of work of state cadastral works of buildings and structures and issues such as serving in solving productivity problems are covered.

Keywords: building and structure, state cadastres, geoinformation systems, settlement, agriculture, cadastre, reconstruction, GAT (geoinformation systems), complex, point, National geoinformation, creation of an electronic database, geovisualization, geodatabase.

Kirish. Respublikamizda yer kadastrini sohasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan, yerga oid barcha axborotlarni raqamlashtirish doirasida aholi punktlari yerlarining hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishi bilan bir qatorda muayyan natijalarga erishilmoqda.

Respublikamiz uchun o'ta dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan bino va inshootlar davlat kadastrlariga tegishli yerlar 80455 gektarni yoki mamlakat umumiy hududiy maydonining 2.8% (foiz)ini tashkil etib, bu ko'rsatkich asosan o'zboshimchalik bilan egallangan aholi punkti yerlari hisobiga yildan-yilga kamayib bormoqda, shu sababdan hozirgi kunda aholi punktlari yerlarining

ko'payishi rejalangan hamda belgilanmagan tarzda qishloq xo'jaligi yerlari hisobiga oshib borishi aholi punkti yerlarining hisobini yuritishni yetarli darajada raqamlashtirishni talab qiladi. Shunday ekan aholi punkti yerlarining hisobini yuritish uslubini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy geoaxborot tizimini tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda, bundan tashqari aholi punkti yerlarining talon-taroj bo'layotganligi va yildan-yilga aholi punkt yerlarining sug'oriladigan yerlar hisobiga kengayotgani, bu esa kelajakda qishloq xo'jaligi mahsulotlari kamayishi va oziq-ovqat tanqisligiga olib keladi, aholiga yer ajratish va uning hisobini yuritish qanchalik dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

Materiallar va usullar. Aholi punkti yer maydonlarini innovatsion uslub va texnologiyalar asosida hisobini yuritish, aholi punkti obyektlarining geovizuallashtirilgan elektron bazasini yaratish hamda ArcGIS dasturi yordamida aholi punkti yerlari hisobi to'g'risidagi axborotlarni namoyon qiluvchi interfeyslar va ilovalar hisoblanadi.

– aholi punkti yerlari foydalanuvchilarining atributiv ko'rsatkichlarini geovizuallashtirishda avtomatlashgan tizimni takomillashtirish;

– aholi punkti yerlarining geoma'lumotlar bazasi tahlilini raqamlashtirish uslublarini asoslash;

– geoaxborot texnologiyalari asosida aholi punkti hududida manzillar reyestrini yuritishni takomillashtirish;

– geoma'lumotlar bazasidagi mavsumiy DKYAT (davlat kadastrlari yagona tizimi) ma'lumotlarini qo'shimcha ArcGIS dasturida yaratilgan modul yordamida tahlil qilish uslubini ishlab chiqish.

– aholi punkti yerlari hisobining uslubi uchuvchisiz uchish apparatlari ma'lumotlari asosida masshtab aniqligini inobatga olgan holda takomillashtirilgan;

– aholi punkti yerlaridan foydalanuvchilarning yer maydonlarini tahlil qilish uslubi ArcGIS dasturiy ta'minoti asosida takomillashtirilgan;

– aholi punkti hududida manzillar reyestrini raqamlashtirish uslubi geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirilgan;

– aholi punkti yerlari hisobini geoaxborot texnologiyalari asosida tashkil qilish uslubi ishlab chiqilgan va modullashtirilgan.

UAV (Unmanned aerial vehicle- Uchuvchisiz uchish aparatlar) lari yor-

damida olingan fotosuratlariga asosan, ArcGIS dasturidan foydalanib, ma'lum bir aholi punkti hududining bino va inshootlar davlat kadastrlarining vektor formatdagi geoma'lumotlar bazasi shakllantirildi, ya'ni hudud uchun yer qiymati ma'lumotlari kosmosuratning qog'oz variantda chop qilingan nusxasi olinib dala sharoitida ko'chmas mulk obyektlarining ma'lumotlari bilan solishtirildi, axborotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilindi. So'ngra ArcGIS dasturida kameral sharoitda aholi punkti yerlarining DKYAT ma'lumotlarini shakllantirish, tahlil qilish ishlari yo'lga qo'yildi va bu uslubning har tomonlama qulay tezkor, kam xarajatli, ma'lumotlarning ishonchliligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalari. Qashqadaryo viloyatining har bir mahallasi bino va inshootlar davlat kadastrini aniqlik kiritish imkoniyati yaratildi va bu bilan yerdan foydalanuvchilarning aynan qaysi MFY ga tegishli ekanligi belgilandi, shuningdek aholini har bir bino va inshootlarini ro'yxatga olish loyihasi bo'yicha ArcGIS dasturida yaratilgan elektron baza mahalla chegaralari hamda unga tegishli ma'lumotlari asosiy baza bo'lib kelmoqda.




1-rasm. Aholi punkti yerlarining DKYATning bino va inshootlar davlat kadastr yo'nalishidagi ma'lumotlarni shakllantirishga asos yaratish uchun UAV laridan foydalanish mexanizmi.

1-jadval

DKYAT axborotlarini geoma'lumotlar bazasiga integratsiyalash strukturasi

Nomi	Xodim soni	MFY obyekt soni	Kunlik reja	Ish turi	Vaqt (kun)	Xatolik darajasi (kv)	Bitta xodimga to'lanadiga summa	Jami summa
Kadastr muhandisi	5		86	Xatlov ishlari	6		145 454.55	727 272.75
				Namuna shakllantirildi				
DKYT muhandisi	1	520	130	Namunaga asosan shp file tayyorlash, tahlil	4	0.2/0.3	181 818.00	727 272.00
1 ta UzKad muhandisi	1		130	Namunani skanerlash, UzKad dasturiga yuklash	4		181 818.00	727 272.00ami
Jami					14		509 090.55	2 181 618.75

UAV lari yordamida olingan fotosuratlariga asosan bino va inshootlar punkti ma'lumotlarining shakllanishi qolaversa aholi punkti yerlaridan foydalanuvchilarning yer maydonlarini tahlil qilish uslubi ArcGIS dasturiy ta'minoti asosida takomillashtirilgan aholi punkti yerlaridan foydalanuvchilarning bino va inshootlar davlat kadastriga oid ma'lumotlarni yer maydonlarini tahlil qilish uslubi O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi huzuridagi Kadastr Agentligi tizimida joriy qilindi (Kadastr Agentligining 2022 yil 30 maydagi 05-04-489-son ma'lumotnomasi). Natijada aniqlik darajasi yuqori yer hisobini yuritish, geoma'lumotlarni transformatsiya qilish va aholi punkti yerlaridan foydalanuvchilar ma'lumotlarining aniqlik darajasini tezkor tahlil qilishda ArcGIS dasturi ta'minotlaridan foydalanish imkoni yaratilgan.



2-rasm. Xato va kamchiliklarni aniqlash hamda hududlarga yuborish jadvali.

Belgilangan tartib bo'yicha hududlarda davlat yer hisobini yuritish Davlat kadastrlari palatasi va uning tuman (shahar) filiallari, tomonidan amalga oshiriladi. Tumanda shakllantirilgan aholi punkti yerlaridan foydalanuvchilar ma'lumotlari excel dasturida kadastr elektron dasturi ma'lumotlari bilan "VPR" buyrug'i orqali aniqlik darajasi tahlil qilinib kelingan. Bino va inshootlar davlat kadastrlari elektron dasturida chiqmagan yoki ko'rsatgichlari noto'g'ri kiritilgan aholi punkti yerdan foydalanuvchilarning yer uchastkalarini, excel dasturida vizuallashtirish imkoniyati bo'lmaganligi sababli qayta ko'rib chiqishda uning, aynan qaysi yer uchastka ekanligi, yer uchastkasining joylashgan joyini topishda vaqt talab qilingan.

Shuningdek xato shakllantirilgan yer uchastkalarini topishda e'tibordan qolib ketgan holatlar hamda soliq to'lovlarning noto'g'ri chiqishi kabi tushunmovchiliklar yuzaga kelgan.

Bino va inshootlar davlat kadastrlari ma'lumotlari onlayn dasturidan excel ko'rinishida olingan ma'lumotlarni ArcGIS dasturi ArcMap ilovasiga qatlam ko'rinishida yuklab olindi va hududda shakllantirilgan aholi punkti DKYAT ma'lumotlari bilan "joing" buyrug'i orqali o'zaro integratsiya qilindi. Bunda qatlam ko'rinishida yuklab olingan ma'lumotlar bilan bog'lanmagan DKYAT bazasi vizuallashtirildi va alohida qatlam ko'rinishida ajralib turadi. So'ngra hudud kadastr muhandisi aynan qaysi bino va inshootlar uchastkasida xatolik bor ekanligi va qayerda joylashganligi hamda o'sha hududning hisobini kadastr muhandisining o'zi yuritganligi sababli muammoning yechimi, xatolikni bartaraf qilish tezkor amalga oshirildi. ArcGIS dasturida aholi punkti yerlarining DKYAT

ma'lumotlarini yangilash, tahlil qilish ishlari tavsiya qilinayotgan uslub bo'yicha yo'lga qo'yildi.

Bino va inshoot davlat kadastrlarini reyestrini raqamlashtirish uslubi GAT asosida takomillashtirilgan bino va inshootlar davlat kadastr ma'lumotlari ArcGIS dasturi asosida aholi punktlari manzillar reyestrini shakllantirishning raqamlashgan usuli tadqiqot natijalari bo'yicha aholi punkti yerlarida manzillar reyestrining bazasi yaratilish va ularning hisobini olishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish imkoni yaratilgan.



4-rasm. Kadastr onlayn dasturidan foydalanish va ma'lumotlarning yanada aniqligi ko'rsatkichlari.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra aholi punkti hududida manzillar reyestrini shakllantirish geofazoviy bog'lash va undan foydalanish nafaqat shahar yerlarida, qishloqlarda joylashgan aholi punkti yerlaridan foydalanuvchilarga interaktiv xizmat ko'rsatishga juda katta qulayliklar yaratdi, balki aholini yashash joyi manzili bo'yicha ro'yxatga olish ishlarini ham avtomatlashtirish imkonini berdi. Aholiga uy-joy qurish uchun yer ajratishda ko'cha nomlari orqali aniq manzili belgilandi. Natijada turli

noto'g'ri ma'lumot almashinuvining oldi olindi. Kadastr onlayn dasturidan foydalanuvchi vazirlik va idoralar uchun ma'lumotlarning yanada aniqligi ta'minlandi. Shu bilan birga, yer hisobini yuritishda yuqori aniqlikdagi natijalarga erishish imkoniyati yaratildi.

Muhokama. Geoaxborot texnologiyalari asosida bazasini shakllantirish orqali bino va inshootlardan tashqari yo'llarning egallagan maydonini ham aniqlash imkoniyati yaratildi. Natijada bino va inshootlarning ichki ko'chalar egallagan maydoni aniqlanib umumiy yer hisobi chiqarildi. Shuningdek aholi punkti yerlarida joylashgan boshqa yer fondi toifasining geo-ma'lumotlari shakllantirildi va tadqiqotlar natijasida, tuman yer resurslari hisoboti (balansi)da yuritilayotgan hisobotlar bilan solishtirildi va shu paytgacha yer solig'i to'lanilmayotgan 7305.64 ga yer maydonlari aniqlandi. ArcGIS dasturida aholi punkti yerlarining manzillari reyestrini shakllantirish, unga tutash hududlarni aniqlash, tahlil qilish ishlarini yo'lga qo'yish takliflari asoslandi, bu esa aholi punkti yerlari maydonini aniq hisoblab chiqarish uslubini har tomonlama qulayligini isbotladi.

Bino va inshoot davlat kadastr yerlari hisobini geoaxborot tizimi asosida tashkil qilish uslubi ishlab chiqildi va modul-lashtirildi bino inshootlarning hududiy yerlari hisobini geoaxborot tizimi asosida tashkil qilish uslubi tadqiqot natijalariga ko'ra bino va inshoot yerlarini samarali boshqarish hamda ularning hisobini yuritish imkonini beradigan geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish imkoni yaratilgan.

ModelBuilder algoritmlash modelidan foydalanib, masofadan zondlash materiallarini tahlil qilish orqali aholi yashash yerlarining hududiy jihatdan o'zgarish che-

garalarini aniqlash bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilishi natijasida mazkur jarayon yuzasidan mexanik usulda amalga oshirilib kelingan dala tadqiqot ishlarining zarur emasligi asosladi. O'z navbatida bu jarayon ortiqcha sarf-xarajatlarni keltirib chiqarishi, vaqt bilan bog'liq muammolar tufayli hukumatga interaktiv xizmat ko'rsatish imkoniyat mavjud bo'lmagan. Shu bilan birga eng asosiysi mutaxassislar va yer egalari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirish uchun qulay fursat bo'lib xizmat qilgan.

Yuqorida zikr etilgan jarayonlarni shaffofligini ta'minlash va ish unumdorligini oshirish maqsadida kameral sharoitda ArcGIS dasturining ModelBuilder algoritm-lash modeli asosida tahlil qilish usulini takomillashtirdi va jarayonlarning raqam-lashtirilgan uslubini ishlab chiqdik.

Jarayonni avtomatlashtirishda 2020 yil va 2021 yilgi tadqiqot natijalari geo-ma'lumotlar bazasiga kirgizilib, simmetrik farqni topish instrumenti yordamida modul ishlab chiqildi. Natijada o'zboshimchalik bilan egallangan yer maydonlarini aniqlash va alohida rang bilan vektor ko'rinishidagi mavzuli qatlamlar yordamida geovizual-lashuvi ta'minlandi. Shu bilan birga mazkur jarayonni ArcGIS dasturining standart pane-lida buyruq tugmasi ko'rinishida ilovasi chiqarildi.

Mazkur jarayonlari raqamlashgan us-lubda amalga oshirish uchun mavjud xatlov natijalari geoma'lumotlar bazasiga yuklab olindi. Xatlov ma'lumotlari yer uchastkasiga oid bo'lgan maydon ko'rinishidagi vektor qatlamlar sanaladi. Yuklab olingan ma'lu-motlar ArcToolbox paneli yordamida "Overlay" usuli orqali Symmetrical Difference tahlili amalga oshirildi. Natijada dasturiy ta'minot avtomatlashgan usulda

yangi alohida qizil rangda maydon ko'rini-shidagi vektor qatlam yaratib o'rtadagi tafo-vutlarni ko'rsatib berdi. Bu o'z navbatida sug'oriladigan yerlar hisobiga aholi yashash yer maydonlarining kengayishidan dalolat beradi.

Xulosa. 1. Bino va inshoot davlat ka-dastrlarini takomillashtirilgan tahlili ishlari natijasi geoaxborot tizimi texnologiya-laridan foydalangan holda vizuallashtirilib, tadqiqot obyektining manfaatdor tashkilot-larga va aholiga interaktiv hamda sifatli xizmat ko'rsatish imkonini berdi.

2. Davlat kadastrlari yagona tizimi axborotlarini to'g'ri va aniq olish, hududda mavjud bino va inshootlarni ro'yxatga olish, yer va ko'chmas mulk bilan bog'liq huquqiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishda uchuv-chisiz uchish apparatlaridan foydalanish, joylarga manzil berish hamda monitoring qilish mamlakat iqtisodiyotining rivojlani-shida hamda yer va ko'chmas mulklardan samarali foydalanishda katta amaliy aha-miyatga egadir.

3. Bino va inshoot davlat kadastrlarini hududida manzillar reyestrini yuritishni takomillashtirish, uning bazasini yaratish yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, shuningdek, fermer xo'jaliklari tomonidan foydalanilayotgan yer maydon-larining joylashgan o'rni va chegaralarini aniq ko'rsatib berish, ularga belgilangan tartibda kadastr raqamlarini berish, aholiga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarning joy-lashuvini ko'rsatish va boshqa ko'plab yo'nalishlarda foydalanish uchun joriy etil-di.


4. Shunday qilib, kadastr ishlarini yuri-tishda, kadastr axborotlarini shakllantirish va Bino va inshoot davlat kadastrlarini yerlaridan foydalanish holatini o'rganish jarayonida uchuvchisiz uchish apparatlari va

ularning ma'lumotlaridan foydalanish, joylarda manzillar reyestrini shakllantirish, ko'chmas mulklardan oqilona va samarali foydalanish hisobi bilan birga, kadastr ishlarini yuritish uchun sarflanadigan xarajatlari va vaqtni tejash imkonini berdi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Chrzanowski, A. Szostak, R. Steyves, In Proceedings of the CDA 2011 Annual Conference, 45-49 (Fredericton, Canada, 2011).
2. R. Oymatov, S. Safayev, YE3S Web of Conferences, 258, 03020 (2021).
3. N. Sabitova, O. Ruzikulova, I. Aslanov, YE3S Web of Conferences, 227, 03003 (2021).
4. F.A. Gapporov, D.N. Valijonov, S.R. Mansurov, Utilization of Water Reservoirs, 299 (TIAME Publications, Tashkent, 2019).
5. M. Bakiyev, N. Rahmatov, A. Ibragimov, Utilization of hydro-technical constructions in irrigation canals, 279 (TIAME Publications, Tashkent, 2018).
6. F.A. Fitzpatrick, In Developments in Yearth Surface Processes, 18 (2014).
7. M. Scaioni, M. Marsella, M. Crosetto, V. Tornatore, J. Wang, Sensors, 18, 11 (2018).

UO‘K: 621.3.043.2

 10.70769/3030-3214.SRT.2.4.2024.53

ELEKTR ENERGIYANING SIFATI ASINXRON ELEKTR YURITMANING ISH SAMARADORLIGIGA TA’SIRINI TADQIQOTI



Yuldashev Elmurod Umaraliyevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, Dotsent, Olmaliq, O‘zbekiston

E-mail: yuldashevmurodumaraliyevich@gmail.com

ORCID ID: 0009-0003-7740-4177

Annotatsiya. *Elektr energiyani sifati asinxron elektr dvigatelini samaradorligiga ta’siri bir nechta kattalikka bog‘liq bo‘ladi. Tarmoqdan olayotgan elektr energiyani nosimmetriya koeffitsientiga, nosinusoidal kuchlanish, nonormal tebranish (chastota) va tarmoq garmonikalari asinxron elektr dvigatelnig ishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Asinxron elektr dvigateli nonormal ish vaqtida eng avvalo uning ishlash muddati qisqaradi. Asinxron elektr dvigatellarning tortish momenti kuchlanishga va aylanish tezligi tebranish (chastota)ga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlar elektr dvigatellar uchun nonormal holat hisoblanadi. Elektr dvigatellarda nonormal holatlar undagi magnit oqimining buzilishiga va chulg‘am harorati ortib, dielektrik laklarni erishiga va fazalararo qisqa tutashuvga olib kelishi mumkin. Asinxron elektr dvigatellarning tezligini o‘zgarishi uning tortish momenti va yuklama tokini ham o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *Asinxron elektr dvigatel, tebranish (chastota), garmonika, nosimmetriya koeffitsienti va nosinusoidal kuchlanish.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ КАЧЕСТВА ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ АСИНХРОННОГО ЭЛЕКТРОПРИВОДА

Юлдашев Элмурод Умаралиевич

Алмалыкского филиала Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова, доцент,

Алмалык, Узбекистан

Аннотация. *Влияние качества электроэнергии на эффективность асинхронного электродвигателя зависит от нескольких величин. Коэффициент несимметрии электрической энергии получаемой от сети, несинусоидальное напряжение, ненормальное колебание (частота) и гармоники сети отрицательно влияют на работу асинхронного электродвигателя. При ненормальной работе асинхронного электродвигателя прежде всего сокращается его срок службы. Крутящий момент асинхронных электродвигателей изменяется в зависимости от напряжения и скорости вращения (частоты). Эти изменения являются ненормальными для электродвигателей. Ненормальные режимы в электродвигателях могут привести*

к нарушению магнитного потока и повышению температуры обмотки, плавлению диэлектрических лаков и короткому замыканию между фазами. Изменение частоты вращения асинхронных электродвигателей вызывает изменение его крутящего момента и тока нагрузки.

Ключевые слова: Асинхронный электродвигатель, вибрация (частота), гармоника, коэффициент несимметрии и несинусоидальное напряжение.

RESEARCH ON THE IMPACT OF THE QUALITY OF ELECTRICITY ON THE EFFICIENCY OF ASYNCHRONOUS ELECTRICAL OPERATION

Yuldashev Elmurod Umaraliyevich

Almalyk Branch of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Associate Professor, Almalyk, Uzbekistan

Abstract. The effect of electricity quality on the efficiency of an asynchronous electric motor will depend on several sizes. The symmetry coefficient of electrical energy received from the network, the non-sinusoidal voltage, non-normal vibration (frequency) and network harmonics negatively affect the operation of the asynchronous electric motor. Asynchronous electric motor during non-normal operation, first of all, its service life is reduced. The torque of asynchronous electric motors varies depending on the voltage and the speed of rotation on the vibration (frequency). These changes are a non-normal condition for electric motors. In electric motors, non-normal states can lead to a violation of the magnetic flux in it and an increase in the rust temperature to melt the dielectric varnishes, and the phases lead to a short circuit. Changing the speed of asynchronous electric motors also causes its torque and load current to change.

Keywords: Asynchronous electric motor, vibration (frequency), harmonica, symmetry coefficient and non-sinusoidal voltage.

Kirish. Asinxron elektr dvigatellarning hozirgi kunda ishlab chiqarish korxonalarida 60÷70% miqdorda qo‘lanilib kelinmoqda. Elektr energiyaning sifati dvigatellarni aylanish tezligi, tortish momenti va energiya samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Asinxron elektr dvigatellarda magnit sistemaning buzilishiga sabab, undagi EYUKning qiymatlari me‘yorida bo‘lmaganligi uchun yuzaga keladi. [2. 42-67].

Elektr energiyani sifatini buzilishi va unga ta‘sir etuvchi omillar tabiiy va sun‘iy omillar hisoblanadi. Elektr energiyani ishlab chiqaruvchi sinxron generatorlarning aylanish tezligi va yakoriga berilayotgan kuchlanish qiymatiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Kuchlanish simmetrikligi va nosimmetrikligi asinxron elektr dvigatellarini aylanuvchi magnit maydoniga salbiy ta‘sir mavjud [3. 52-73].

Natijalar. Elektr dvigatellarning samaradorligiga elektr energiya sifatini ta‘siri doirasida nosimmetriya koeffitsienti bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

Tadqiqot ishlarini olib borish vaqtida elektr dvigatellarga normal va non-normal holatlar uchun qiyoslash va ular orasidagi energiya samaradorlikni aniqlash tadqiqot ishini maqsadi qilib olindi. Kuchlanish qiymatlarini 1,2 va 3- ifodalar orqali aniqlanadi.

$$u_1 = \frac{1}{2\sqrt{3}} \left[\left(\sqrt{3} \cdot U_{AB} + \sqrt{4 \cdot U_{BC}^2 - \left(\frac{U_{BC}^2 - U_{CA}^2}{U_{AB}} + U_{AB} \right)^2} \right) - j \left(\frac{U_{BC}^2 - U_{CA}^2}{U_{AB}} \right) \right]; \quad (1)$$

$$U_2 = \frac{1}{2\sqrt{3}} \left[\left(\sqrt{3} \cdot U_{AB} - \sqrt{4 \cdot U_{BC}^2 - \left(\frac{U_{BC}^2 - U_{CA}^2}{U_{AB}} + U_{AB} \right)^2} \right) + j \left(\frac{U_{BC}^2 - U_{CA}^2}{U_{AB}} \right) \right]; \quad (2)$$

$$U_0 = \frac{1}{6} \left[\frac{U_{BC}^2 - U_{CA}^2}{U_{AB}} - 3 \cdot \frac{U_B^2 - U_A^2}{U_{AB}} \right] + j \frac{1}{6} \left[\sqrt{4 \cdot U_{BC}^2 - \left(U_{AB} + \frac{U_{BC}^2 - U_{CA}^2}{U_{AB}} \right)^2} - 3 \cdot \sqrt{4 \cdot U_B^2 - \left(U_{AB} + \frac{U_B^2 - U_A^2}{U_{AB}} \right)^2} \right]; \quad (3)$$

Teskari ketma-ketlikda kuchlanish nosimmetriya koefitsientini aniqlash 4-ifodada keltirilgan.

$$K_{2U} = \frac{U_2}{U_1} \cdot 100\%; \quad (4)$$

Normal ruxsat etilgan koefitsient:

$$K_{2U} = 2 \%$$

Maksimal ruxsat etilgan koefitsient:

$$K_{2U} = 4 \%$$

Nol ketma-ketlikda kuchlanish nosimmetriya koefitsientini aniqlash 5-ifodada keltirilgan.

$$K_{0U} = \frac{\sqrt{3} \cdot U_0}{U_1} \cdot 100\%; \quad (5)$$


Normal ruxsat etilgan koefitsient:

$$K_{2U} = 2 \%$$

Maksimal ruxsat etilgan koefitsient:

$$K_{2U} = 4 \%$$


Agar uch fazali tarmoqlarda faza kuchlanishi simmetrik bo'lsa, dvigatel chulg'amlaridan o'tayotgan tok kuchi ham simmetrik bo'ladi. Ushbu holatda asinxron elektr dvigateli normal holatda ishlay oladi. Simmetrik bo'lgan iste'molchining vektor diagrammasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Yulduz ulangan elektr dvigatellarda simmetrik kuchlanish.

Tadqiqot davomida asinxron elektr dvigatellarga berilayotgan kuchlanish nosimmetriyasida faza siljishi nonormal holatda kuzatilgan. $\alpha_{ab} \neq \alpha_{bc} \neq \alpha_{ca}$

fazalararo burchakni tajriba orqali aniqlanadi. $\alpha_{ab} \neq \alpha_{bc} \neq \alpha_{ca}$ faza siljishi 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Yulduz ulangan elektr dvigatellarda nosimmetrik kuchlanish.

Yuqoridagi tadqiqot natijalarida asinxron elektr dvigatellariga berilayotgan kuchlanish va tok kuchini nosimmetriya koefitsienti quyidagicha bo'ladi:

$$K_{2U} = 0.2 \% \quad K_{0U} = 0.3 \%$$

$$K_{2I} = 13.7\% \quad K_{0I} = 8.9 \%$$

Muhokama. Tadqiqotda aniqlangan qiymatlarga asoslangan holda asinxron elektr dvigateli tok kuchini turli xil qiymatlarda bo'lganligi uchun nosimmetriklik koefitsienti me'yoridan yuqoriligi aniqlandi. Bu holat dvigatelning stator chulg'amlarida harorat o'zgarishiga olib keldi. Stator chulg'am harorat o'zgarishi 1-grafikda keltirilgan.



1-grafik. Stator chulg'amining tajriba natijasida aniqlangan harorati.


Xulosa. Asinxron elektr dvigatellariga berilayotgan kuchlanishning qiymati me'yoridan ortishi chulg'amlarda normal holatga nisbatan harorati ko'tarilishini hisobga olib, dielektrik laklarni o'z xossasini yo'qotilishini va dvigatellar ekspluatatsion muddatda ishlay olmasligini keltirish mumkin. Xulosa qilib aytganda, statorning chulg'am harorati validagi yuklama va elektr energiya sifatiga uzviy bog'liq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И. В. Бочкарев. Расчет и конструирование асинхронных электродвигателей: методические указания к расчетно-графическому заданию по курсу «Электрические машины» / сост.: Бишкек: КРСУ, 2015. 79 с.
2. И.И.Алиев. Асинхронные двигатели в трехфазном и однофазном режимах. –М.: ИП РадиоСофт, 2002. -128 с.
3. E.X. Abduraimov., M.U.Muminov., H.E.Yuldoshov “Elektrotexnika va elektronika asoslari” Darslik. -Toshkent: ToshDTU OF, 2024.- 282 b.
4. Yuldoshov H.E., Yuldashev E.U., Shodiyev O.A., Djurayev R.U. Kon kompressor uskunalarning ekspluatatsiya samaradorligini oshiruvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish. – Monografiya. – Toshkent: «Lesson Pres» MChJ nashriyoti, 2023. – 115 b. ISBN: 978-9910-9661-0-1.
5. Khatamova D.N., Yuldashev E.U. Improvement of cooling system of mine reciprocating compressor units // International Journal on Integrated Education. - American Journal Of Applied Science And Technology, 2023.– Vol 3, No 8. – Pp. 14-22. ISSN – 2771-2745 (SJIF 2024: 7.063).
6. Khatamova D.N., Yuldashev E.U. Temperature of the compressor suction air and its influence on the efficient operation of the compressor unit // International Journal on Integrated Education. - American Journal Of Applied Science And Technology, 2023.– Vol 3, No 8. – Pp. 9-14. ISSN – 2771-2745 (SJIF 2024: 7.063).
7. Yuldashev E.U., Pardayeva Sh.S., Xatamova D.N. Porshenli kompressorlarga so'riluvchi havoni samarali sovutishning texnik yechimlarini ishlab chiqish // Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. –Buxoro, 2024. –№1. -45-51-b. (05.00.00; №24).
8. Хатамова Д.Н., Юлдашев Э.У. Исследование влияния температуры всасываемого воздуха на эффективность поршневого компрессора// Miasto Przyszłości. –2024 Vol 45. – Pp. 317-320. ISSN –L: 2544-980X (SJIF 2024: 9.2).
9. Khatamova D.N., Yuldashev E.U. Mathematical modelling of deposit formation processes on heat-exchange surfaces of piston compressor air coolers// Universum: технические науки. – Москва, 2024. – №2 (119). – С. 43-46 (02.00.00; №1).
10. Khatamova D.N., Yuldashev E.U. Study of factors affecting the efficiency of reciprocating compressors// Universum: технические науки. – Москва, 2024. – №2 (119). – С. 47-53 (02.00.00; №1).
11. Yuldashev E.U. Kompressor uskunalarning ikkilamchi energiya resurslarini foydali utilizatsiya qilish usullarining tahlili // «Fan va texnika taraqqiyotida intellektual yoshlarning o'rni» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2023. – 230-231 b.

YENGIL SANOAT TARMOQLARI
ЛЕГКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
LIGHT INDUSTRIES

UO'K: 628.162

 10.70769/3030-3214.SRT.2.4.2024.36

LAK BO'YOQ KORXONALARIDA HOSIL BO'LGAN OQOVA SUVLARNI
KOMPLEKS HOSIL QILUVCHI IONITLAR YORDAMIDA TOZALASH



G'afforova Shaxlo Voxit qizi

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doctori (PhD)
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
Termiz, O'zbekiston



**Omandavlatov Sirojiddin
Sodiq o'g'li**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
assistenti, Termiz, O'zbekiston
ORCID ID: 0009-0009-2975-3931

Аннотация. Ushbu maqolada lak bo'yoq korxonalaridagi oqova suvlarini tozalash maqsadida mahalliy xomashyolardan foydalanib tarkibida azot, kislorod va kremniy tutgan organogibrid ionitlar sintez qilindi. Sintez qilingan ionitlar orqali to'qimachilik sanoatida hosil bo'lgan oqova suvlarni tozalashda qo'llanildi. Korxonada hosil bo'lgan oqova suvlarning tozalash samaradorligini suvdagi ionitning hosil bo'lish jarayonida monomerlarning mol nisbatlariga bog'liqlik qonuniyatlari bilan o'rganildi va uning mol nisbatlari 1:1 ni tashkil qildi, bunda oqova suvlarning KKS ko'rsatkichining kattaligi 45-55% ga, rang intensivligi 92-94% ga kamayadi.

Калит so'zlar: Tozalash, sorbent, azot, koagulyant, kremniy, sintez, organomineral, metallar, sorbsiya, ionit, oqova suvlar, to'qimachilik, kislota.

ОЧИСТКА СТОЧНЫХ ВОД, ПРОИЗВОДИМЫХ НА ЛАКОКРАСОЧНЫХ
ЗАВОДАХ, С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЛЕКСНО-ГЕНЕРИРУЮЩИХ
ИОНИТОВ

Гафарова Шахло Вохит кизи

Доктор философии технических наук (PhD)
Термезский государственный университет инженерии и
агротехнологий, Термез, Узбекистан

Omandavlatov Sirojiddin Sodiq o'g'li

*Ассистент, Термезский государственный университет
инженерии и агротехнологий, Термез, Узбекистан*

Аннотация. В данной статье с использованием местного сырья для очистки сточных вод лаковых заводов синтезированы органогибридные иониты, содержа -

щие азот, кислород и кремний. Его использовали при очистке сточных вод текстильной промышленности посредством синтезированных ионитов. Эффективность очистки сточных вод на предприятии изучали по законам зависимости от мольного соотношения мономеров в процессе образования ионита в воде, при этом его мольное соотношение составляло 1:1, при этом показатель ККС сточных вод составлял 45- 55%, интенсивность цвета снижается на 92-94%. **Ключевые слова:** Очистка, сорбент, азот, коагулянт, кремний, синтез, органоминеральные, металлы, сорбция, ионит, сточные воды, текстиль, кислоты.

TREATMENT OF WASTEWATER PRODUCED IN VARNISH PAINT FACTORIES USING COMPLEX-GENERATING IONITES

Gafforova Shakhlo Vohit kizi

Doctor of Philosophy of Technical Sciences (PhD)
Termez State University of Engineering and Agricultural
Technologies, Termez, Uzbekistan

Omandavlatov Sirojiddin Sodiq ugli

Assistant, Termez State University of Engineering and Agricultural
Technologies, Termez, Uzbekistan

Abstract. In this article, organohybrid ionites containing nitrogen, oxygen, and silicon were synthesized using local raw materials for the purpose of wastewater treatment in varnish factories. It was used in the treatment of waste water produced in the textile industry by means of synthesized ionites. The efficiency of wastewater treatment at the enterprise was studied by the laws of dependence on the molar ratio of monomers in the process of formation of ionite in water, and its molar ratio was 1:1, in which the KKS indicator of wastewater was 45-55%, the color intensity decreases by 92-94%.

Keywords: Cleaning, sorbent, nitrogen, coagulant, silicon, synthesis, organomineral, metals, sorption, ionite, waste water, textile, acids.

Kirish. Sanoat miqyosida oqova suvlarni tozalash jarayoni bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda oqova suvlarni tozalash jarayonida kompleks hosil qiluvchi ionitlar va sorbentlar yordamida amalga oshirilib kelinmoqda. Kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishga, xususan rangli va nodir metallarni eritmalar tarkibidan tanlab ajratib olishda hamda oqava suvlarni og'ir metallardan tozalash uchun qo'llaniladigan sorbent va ionitlarni olish bo'yicha ma'lum ilmiy amaliy natijalarga erishilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. XXI asr axborot texnologiya davrida fan texnika rivojlanishiga qaramasdan neft va neft mahsulotlarini bir yerdan ikkinchi yerga

tashish jarayonida dengiz va chuchuk suv muhitiga tushishi natijasida jiddiy ekologik muammo bo'lib qolmoqda. Kelajakdagi bunday jarayonlarni suv ekotizimlari va inson salomatligiga ta'sirini kamaytirish uchun ko'plab tadqiqotlar suvdan neftni olib tashlashning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga qaratildi [1]. Yangi arzon, ekologik toza usul suvdan neft olish uchun zaharli bo'lmagan va biologik parchalanadigan sellyuloza asosidagi sorbentlardan foydalanishga asoslangan. Bu yerda biz hozirgi kunga qadar ishlab chiqilgan sellyuloza asosidagi materiallarning neft sorbenti sifatida samaradorligi va neft to'kilishiga qarshi kurash operatsiyalari uchun tijorat mahsulotiga aylanish imkoniyatlari nuqtai

nazaridan qisqacha tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Tekshiruv natijalari sellyuloza nanokristallari va sellyuloza nanofibrillaridan neft to'kilishini tozalash uchun juda kerakli xususiyatlarga ega sorbent materiallar sifatida potensial foydalanishni ta'kidlaydi. Sellyuloza asosidagi noyob gidrofobik va oleofil xususiyatlarga ega (yog' selektivligi bo'yicha), shuningdek, fizik-mexanik xususiyatlarga ega (yuqori sirt maydoni va kichik g'ovak hajmi) neft to'kilishini tozalashda foydalanish uchun ideal alternativ material bo'lishi mumkin [2]. Temir oksidi nanozarrachalarini kiritish orqali gidrofobik va magnit xususiyatlarning kombinatsiyasi yuqori qayta foydalanish va funkcionallikni, ishlash qulayligini va sellyuloza asosidagi sorbentlarni oson ajratishni ta'minlaydi. Shunday qilib, u neft to'kilishi va ifloslanish bilan kurashish uchun yangi yondashuvni taklif qiladi. Bundan tashqari, neftni iste'mol qilgandan keyin ularni qayta ishlatish qobiliyati barqarorlikka qo'shimcha qadamdir. Biroq, kichik neft to'kilishini nazorat qilish va ularga javob berishni osonlashtirish uchun sanoat miqyosida sellyuloza asosidagi sorbentlarning amaliy foydalilik darajasini aniqlash va tushuntirish bo'yicha ish hali ham talab qilinadi [3].

To'qimachilik sanoatida hosil bo'ladigan oqova suvlari tarkibida aynan kremniy saqllovchi birikmalarga tanlovchan bo'lgan kuchli ishqoriy kislotali muhitga ega bo'lgan og'ir organik va noorganik moddalar mavjudligi aniqlangan. Tabiiy suv resurslarida seriyning to'planishi jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin [4]. Yana bir jihat - metallurgiya shlaklari chiqindilarining to'planishi. Rossiyaning Chelyabinsk shahri yaqinida joylashgan metallurgiya shlaklari seriy

ionlarini (Ce^{3+}) immobilizatsiya qilishga qodir kukun va donador kalsiy alyumosilikatlarini ($CaO-MgO-SiO_2-Al_2O_3$) kompozit sorbentlar ishlab chiqarish uchun potensial xom ashyo sifatida o'rganildi. Sorbsion tajribalarda Ce^{3+} ionlarining yuqori konsentratsiyasi (1000 mg/l) bo'lgan suvli eritmalar qo'llanilgan. Migratsiya xususiyatlari kalsiy (Ca^{2+}), magniy (Mg^{2+}), kremniy (Si^{4+}) va alyuminiy (Al^{3+}) ionlari uchun o'rganildi. 24 soat ichida Ce^{3+} ionlarini olib tashlash darajasi kukun holida 93,36% ga, donador sorbentlar uchun 99,98% ga yetdi. Sorbentlarning sorbat bilan o'zaro ta'siri Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlarining sorbent matritsasidan suvli eritmasiga teskari o'tishi bilan birga bo'lgan. Desorbsiya jarayoni distillangan suvda o'rganildi [5].

Sorbentlarning selektivligi turli qimmatbaho metallarning sintezida turli tadqiqotlar olib borilgan. Bir qancha adabiyotlarda oltin va kumushga nisbatan sorbsion faollikni namoyon qiluvchi politiokarbamid olish usuli keltirilgan [7]. Tarkibida kremniy tutgan barcha minerallar va sintetik sorbsion materiallar turli xil fizik kimyoviy va texnik xususiyatlarga ega bo'lgan keng birikmalar guruhini tashkil qiladi [8].

Adabiyotlarda keltirilishicha, to'qimachilik oqova suvlari tarkibida aynan kremniy saqllovchi birikmalarga tanlovchan bo'lgan kuchli ishqoriy kislotali muhitga ega bo'lgan og'ir organik va noorganik moddalar mavjudligi aniqlangan. Kremniy saqllovchi birikmalar aynan to'qimachilik sanoat oqova suvlarini yaxshi sorbsiyalanishini inobatga olib, ushbu tadqiqot ishida dimetilol karbamid va natriy metasilikat asosidagi kompleks hosil qiluvchi ionitni ob'ekt sifatida tanlab olindi. Hamda ushbu ionitni to'qimachilik korxonalarida oqova suvlarini tozalashda sinab ko'rildi.

Oqova suvlarning birinchi oqimini tozalashda ionit miqdoriga bog‘liq holda sirt faol moddali konsentratsiyasining kamayishi 1-jadvalda berilgan. Oqova suvlarning tozalanish darajasining ionitlar miqdoriga bog‘liqligini o‘rganish natijasida aniqlandiki, DMT+Natriy metasilikat uchun 0,75-1,0 g/l va DMT+M uchun 0,375-0,75 g/l ni

tashkil qiladi, bunda KKS ko‘rsatkichi uchun tozalik darajasi 38-65% ga, rang intensivligi bo‘yicha 82-95% ga teng bo‘ladi.

Oqova suvlarni tozalash jarayonida ionit va sorbentlarning optimal miqdorlarini aniqlash maqsadida ionitlarning turli mol nisbatlaridan foydalanib, suvni tozalash

1-jadval

Bo‘yash-pardozlash korxonasi oqova suvlarining birinchi oqimini kompleks hosil qiluvchi ionitlarning optimal miqdorlari bilan tozalash samaradorligi

Kiruvchi suv		Koagulyant		pH		Tozalash samaradorligi		Cho‘kma hajmi, %
790	1:316	DMK+M	0,3	9,70	6,70	48.43	65.90	7.36
790	1:316	DMK+N	1,0	7,60	6,76	55.32	95.10	853
960	1:410	DMK+M	0,3	7,60	6,68	51.77	94.26	8.76
960	1:410	DMK+N	0,7	8,63	6,25	41.37	92.30	6.43
910	1:410	DMK+M	1,0	8,63	6,80	45.10	92.45	7.90
910	1:410	DMK+N	0,5	8,66	6,45	45.40	85.15	7.30
736	1:280	DMK+M	1,0	8,66	6,62	52.66	85.20	7.30
736	1:280	DMK+N	0,5	8,12	6,40	38.26	92.10	7.62
682	1:490	DMK+M	1,0	8,12	6,69	43.24	92.48	7.83
682	1:490	DMK+N	1,0	8,68	6,20	54.16	82.25	8.76
566	1:286	DMK+M	0,7	8,68	6,74	56.24	90.12	8.76
566	1:286	DMK+N	1,0	7,03	5,50	53.22	85.16	6.40
750	1:210	DMK+M	0,7	9,70	6,90	65.31	85.40	6.60
750	1:210	DMK+N	0,5	8,90	6,86	42.14	94.65	7.70
970	1:750	DMK+M	0,3	8,90	6,83	53.18	82.10	8.76
970	1:750	DMK+N	0,5	9,70	6,78	46.24	89.37	6.83

2-jadval

Birinchi oqim oqova suvlarini tozalashda sirt faol moddalar konsentratsiyasining o‘zgarishi

Suvning xarakteristikasi	Ionit DMK+N		Suyultirishdagi bo‘yoq intensivligi, %	Sirt faol modda, mg/l	pH	Tozalash samaradorligi, %
	Molekul. massasi	Miqdori, g/l				
Tozalagunga qadar ionitga sorbsiyalanishi	-	-	1:316-1:750	10,2-21,1	9,3	-
	10.000	0,50	1:40-1:80	4,7-9,8 4,8-8,6	7,3	86,75
		0,50	1:10-1:20		7,5	88,10
Ionitga sorbsiyalanishi	30.000	0,50	1:40-1:100	5,4-10,9	7,6	88,30
		0,50	1:10-1:30	4,3-10,6	7,3	95,10

jarayoni o'rganildi. Oqova suvlarni tozalash samaradorligining ionit hosil bo'lishida monomer mol nisbatlariga bog'liqlik qonuniyatlari o'rganildi va uning mol nisbatlari 1:1 ni tashkil qildi, bunda oqova suvlarning KKS ko'rsatkichining kattaligi 45-55% ga, rang intensivligi 92-94% ga kamayadi. Ionit hamda mineral koagulyantlarning optimal miqdorlari rang intensivligi va KKS bo'yicha deyarli bir xil tozalanish samaradorlikka ega ekanligi isbotlandi. Sintez qilingan sorbentlarning sorbsion xossalari o'zaro solishtirildi. Ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Olingan sorbentlarni sorbsion xossalari solishtirma jadvali

№	Sintez qilingan sorbentlar	0,1 n. eritmadan ionlar sorbsiyasi, mg-ekv/g.				
		Cu ⁺⁺	Fe ⁺⁺	Ni ⁺⁺	Zn ⁺⁺	Ag ⁺
1	DKM+N	2,2	1,6	1,1	2,1	-
2	MK-1	4,4	3,2	4,2	4,1	0,8
3	TMS	4,2	-	3,3	3,8	4,3
4	EKS	4,8	-	3,7	4,6	-
5	FMS	4	-	1,9	3,8	-
6	OKK-MEA	0,95	1,05	0,61	0,82	-
7	OKK-DEA	1,9	2,07	0,36	0,86	-

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, metall ionlarini sorbsiyasi bo'yicha karbamid-metasilikat asosidagi sorbent (MK-1), tiokarbamid-metasilikat asosidagi sorbent (TMS), silikagelni immobillash usulida olingan sorbent (EKS) larning samaradorligi boshqa sorbentlarga qaraganda yuqori

ekanligi kuzatildi.

Muhokama. Lak bo'yoq korxonasidan chiqayotgan oqova suvlarni tozalashda turli xil sorbentlarni qo'llash orqali ba'zi muomolarga duch kelamiz. Masalan oqova suvlar tarkibidagi ayrim metal atomlarini tozalash anchagina murakkab bo'lishi bilan bir qatorda ko'p miqdorda sorbent talab qiladi. Qolaversa tozalash jarayonida qo'llaniladigan sorbentlarning tannarxi, ularni ishlab chiqarishda mahalliy resurslardan foydalanilmasligi biz uchun iqtisodiy muammolar keltirib chiqadi. Tajribada qo'llagan dimetilol karbamid asosida foydalanilgan sorbentlar tan narxi bo'yicha ham qolaversa bu sorbentlarni tayyorlashda o'zimizni mahalliy xom ashyolar asosida tayyorlanadi. Bu sorbentlarning yana muhim jihadlarini aytadigan bo'lsak kam chiqindili texnologiya sifatida baholasak bo'ladi.

Xulosa. Olingan natijalarga asoslanib oqova suvlarni tozalash jarayonida ionit va sorbentlarning optimal miqdorlarini aniqlash maqsadida ionitlarning turli mol nisbatlaridan foydalanib, suvni tozalash jarayoni o'rganildi. Sintez qilingan sorbentlarning solishtirma massasi o'zaro solishtirildi. Olib borilgan natijalar shuni ko'rsatdiki sorbentning sorbsion xususiyatini yuqoriligini inobatga olib oqova va chiqindi suvlarini qo'shimcha og'ir metallardan tozalash o'ranildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. A.G. Morozova, T.M. Lonzing, V.A. Skotnikov, J.N. Sahu, G.G. Mikhailov, J.L. Schenk, A. Bhattacharyya, Y. Kapelyushin, // Utilization of metallurgical slag with presence of novel CaO-MgO-SiO₂-Al₂O₃ as a composite sorbent for wastewater treatment contaminated by cerium, // Journal of Cleaner Production, Volume 255, 2020, 120286, <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.120286>.
2. Aimaro Sanna, Ili Ramli, M. Mercedes Maroto-Valer, // Development of sodium/lithium/fly ash sorbents for high temperature post-combustion CO₂ capture, Applied Energy, Volume 56, 2015, Pages 197-206, ISSN 0306-2619,

<https://doi.org/10.1016/j.apenergy.2015.07.008>.

3. Samia ben Hammouda, Zhi Chen, Chunjiang An, Kenneth Lee, // Recent advances in developing cellulosic sorbent materials for oil spill cleanup: A state-of-the-art review, // Journal of Cleaner Production, Volume 311, 2021, 127630.
4. G'afforova Sh.V., Turaev X.X., Sottikulov E.S., Babamuratov B.E. "Metasilikat natriy asosida olingan sorbentning sorbsion sig'imini aniqlash" // "Sanoat injineriyasining dolzarb muammolari" respublika ilmiy –amaliy 20-22 oktyabr, 2021 g, T.: 226-227-bet.
5. Djalilov A.T., Turaev X.X., Kasimov Sh.A. Sintez sorbenta na osnove di-(2-aminoetila)-ditifosfata kaliya i epixlorgidrina // Universum: ximiya i biologiya elektronny nauchnyy jurnal, -Rossiya, -№9 (39), -sentyabr, -2017.
6. Turaev X.X., Kasimov Sh.A., Tojiev P.J., Normurodov B.A., Pardaev O.T., Geldiev Yu.A. Ditiyofosfat kislotalarning di-(aminoalkil) xosilalari sintezi // Kimyo sanoatida innovasion texnologiyalar va ularni rivojlantirish istiqbollari respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to'plami, Urganch, 20-21 aprel, 2017, 98-b.

ЭКОЛОГИЯ, МЕХНАТ МУХОFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI
ЭКОЛОГИЯ, ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ
ECOLOGY, LABOR PROTECTION AND TECHNICAL SAFETY

UO‘K: 631.372:331.45

 10.70769/3030-3214.SRT.2.4.2024.50

QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARIDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGINI
TIZIMLI BOSHQARISH TALABLARI



Karimov Bahodir O'ktam o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: baxodirkarimov0928@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish xavfsizligini tizimli boshqarishning asosiy vazifasi, maqsadi tahlil qilingan, qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanishdagi xavfsizlik talablarini tasnifi va "Inson-mashina-muhit" tizimida qishloq xo'jalik mashinalari xavfsizligini ta'minlovchi asosiy komponentlar ta'sirida baxtsiz hodisalarni kelib chiqish ehtimolligi algoritmi ishlab chiqilgan. "Inson-mashina-muhit" tizimidagi baxtsiz hodisalarga olib keluvchi sabablarni (inson omili, qishloq xo'jalik texnikalari konstruksiyasi va ulardan foydalanishga qo'yilgan xavfsizlik talablari, ishlab chiqarish muhit omillari) bitta tizim sifatida qabul qilish tavsiya etildi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, tizim, xavfsizlik, boshqarish, sabab, xavf, zararli omil, oqibat, baxtsiz hodisa, algoritm, model.

ТРЕБОВАНИЯ К СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТЬЮ ПРИ
ЭКСПЛУАТАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ

Каримов Баходир Уктам угли

Независимый исследователь, Каришинский инженерно-экономический институт, Кариши, Узбекистан

Аннотация. В статье анализируются основная задача и цель системного управления безопасностью при эксплуатации сельскохозяйственной техники. Разработана классификация требований безопасности и вероятности возникновения несчастных случаев под воздействием основных компонентов, обеспечивающих безопасность в системе «Человек-машина-среда». Было рекомендовано принять причины несчастных случаев в системе «человек-машина-среда» (человеческий фактор, конструкция сельскохозяйственных машин и требования безопасности при их использовании, факторы производственной сре-

ды) как одну систему.

Ключевые слова: сельское хозяйство, система, безопасность, управление, причина, риск, вредный фактор, последствие, авария, алгоритм, модель.

REQUIREMENTS FOR THE SAFETY MANAGEMENT SYSTEM FOR AGRICULTURAL MACHINERY

Karimov Bahodir Uktam ugli

Independent researcher, Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi, Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the main task and purpose of systemic safety management in the operation of agricultural machinery. A classification of safety requirements and the probability of accidents occurring under the influence of the main components that ensure safety in the “Man-Machine-Environment” system has been developed. It was recommended to accept the causes of accidents in the “man-machine-environment” system (human factor, design of agricultural machinery and safety requirements for their use, factors of the production environment) as one system.

Keywords: agriculture, system, safety, management, cause, risk, harmful factor, consequence, accident, algorithm, model.

Kirish. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligining rivojlanishi ushbu sohaga eng yangi texnika va texnologiyalarni qanchalik tadbiq qilinishi, ya‘ni zamon rivojiga mos holda qishloq xo‘jaligi «Smart» («aqli») qishloq xo‘jaligini joriy etish bilan belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi ekin yerlari va suvdan samarali foydalanishda raqamli texnologiyalarni tadbiq etish, intensiv bog‘lar tashkil etish, bog‘larni avtomatik tarzda boshqarish texnologiyalarini, issiqxona xo‘jaliklarida avtomatlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan intellektual texnologiyalarni, chorvachilik va parandachilik sohasiga robotlashtirilgan, avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan texnologiyalarni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlariga, logistika va sotish markazlarida raqamli texnologiyalarning joriy etishni nazarda tutadi. Qishloq xo‘jaligiga bunday yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni tezkor kirib kelishi ulardan foydalanish xavfsizligini boshqarish tizimini

ham tubdan qayta ko‘rib chiqishni va takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi sohasidagi mavjud muammolardan biri, ish joylarida sodir bo‘layotgan baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklarga chalinishni mehnat muhofazasini tizimli boshqarishni to‘g‘ri tashkil etish orqali oldini olish hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Qishloq xo‘jalik mashinalaridan foydalanish xavfsizligini tizimli boshqarish modelini yaratishda “GOST 12.0.230-2007. Davlatlararo standart. Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Mehnat muhofazasini boshqarish tizimi. Umumiy talablar”, “Qishloq xo‘jaligi texnikalari konstruksiyasi xavfsizligining umumiy texnik reglamenti (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18 mart 2016 yildagi №80-son Qaroriga ilova), “Qishloq xo‘jalik texniklarida ishlashda xavfsizlik texnikasi umumiy qoidalari” ga asoslangan holda ishlab chiqamiz. Yuqorida keltirilgan standartlar va boshqa xavfsizlikni ta‘minlashga oid huquqiy me‘yoriy hujjat-

larning har biri tavakkalchilikni baholash va Deming sikli PDCA (Plan-Do-Check-Act), Qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanish xavfsizligini boshqarish tizimi jarayonlari umumiy xaritasini SADT «Structured Analysis and Design Technique» (Tarkibiy tahlil va loyihalash metodologiyasi) va IDEF0-2000 (Funksional modellashtirish texnologiyasi) texnologiyalari prinsipidan foydalangan holda ishlab chiqildi. Ushbu metodologiyalar tizimni ko'plab o'zaro bog'langan funksiyalardan iborat diagramma (funksional bloklar) ko'rinishida ifodalashga imkon yaratadi.

Natijalar va muhokamalar. Qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish xavfsizligini tizimli boshqarishning asosiy vazifasi ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan jarohatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish va qishloq xo'jalik texnikalarini boshqaruvchi operatorlar (traktorchilar) va texniklarga xizmat ko'rsatuvchi ishchi-xodimlar ish sharoitini yaxshilab borishi ustidan nazorat qilib turish, fan va texnika yutuqlarini joriy qilish asosida mehnat xavfsizligi va himoya vositalarini muttasil takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik hamda sanitariya tadbirlarini ishlab chiqish va ularni joriy qilishdan iboratdir [1].

Qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish xavfsizligini boshqarish tizimining birdan-bir maqsadi, mehnat muhofazasi qonun va qoidalariga ishchi va xizmatchilar e'tiborini oshirish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini yaratishni yagona, to'g'ri echimini aniqlash va uni ishlab chiqarishda tadbir etishga tavsiya qilishdir. Xavfsizligini boshqarish - bu bir qator, tashkiliy, texnikaviy va sanitar-gigienik va iqtisodiy tadbirlar tizimini tayyorlash va amalda joriy qilish

asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligining rivojlanishi ushbu sohaga eng yangi texnika va texnologiyalarni qanchalik tadbir qilinishi, ya'ni zamon rivojiga mos holda qishloq xo'jaligi «Smart» («aqlli») qishloq xo'jaligini joriy etish bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi ekin yerlari va suvdan samarali foydalanishda raqamli texnologiyalarni tadbir etish, intensiv bog'lar tashkil etish, bog'larni avtomatik tarzda boshqarish texnologiyalarini, issiqxona xo'jaliklarida avtomatlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan intellektual texnologiyalarni, chorvachilik va parandachilik sohasiga robotlashtirilgan, avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan texnologiyalarni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlariga, logistika va sotish markazlarida raqamli texnologiyalarning joriy etishni nazarda tutadi. Qishloq xo'jaligiga bunday yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni tez-kor kirib kelishi ulardan foydalanish xavfsizligini boshqarish tizimini ham tubdan qayta ko'rib chiqishni va takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi sohasidagi mavjud muammolardan biri, ish joylarida sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarga chalinishni mehnat muhofazasini tizimli boshqarishni to'g'ri tashkil etish orqali oldini olish hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanishdagi xavfsizlik talablarini yoki baxtsiz hodisalarning sabablarini 3 ta guruhga ajratishimiz mumkin:

- qishloq xo'jalik texnikalarining konstruksiyasi va texnik holati bilan bog'liq sabablar;

- qishloq xo'jalik texnikalarini boshqaruvchi mashinist-traktorchilar (keyingi o'rinlarda "operatorlar") ning xavfsizlik tex-

nikasi qoidalarini yetarli darajada bilmasligi va ularni o'z vaqtida yo'riqnomalardan o'tmasligi va xavfsizlik madaniyati;

- tashqi omillar (iqlim ko'rsatkichlari, shovqin, titrash, statik elektr zaryadlari, fizik dinamik va statik yuklanish, kimyoviy o'g'itlar, patogen mikroorganizmlar va b.).

Tadqiqotimizda tahliliy materiallar asosida ishlab chiqilgan ushbu tasnif mehnat muhofazasi bo'yicha ilmiy va o'quv adabiyotlarda keltirilgan ishlab chiqarishda yuzaga keladigan baxtsiz hodisalarning standart tasnifidan farq qiladi. Standart tasnifda baxtsiz hodisalarning sabalari 4 guruhga, ya'ni texnik-texnologik (mashinalarning xavfli zonalari, mashinalarni noto'g'ri montaj qilinishi, to'siq qurilmalarni o'rnatilmasligi, tormoz tizimini yaxshi ishlamasligi, elektr xavfsizligi talablariga rioya qilmaslik, texnikalardan boshqa maqsadlarda foydalanish va b.), sanitar-gigienik (mikroiqlim va iqlim ko'rsatkichlarini me'yorda bo'lmasligi, yuqori darajada zaharli gaz va changlar, shovqin, titrash, ionli nurlanishlar va b.), tashkiliy (mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalarni o'z vaqtida o'tkazilmasligi, ish rejimi va dam olish rejimini buzilishi, maxsus kiyim boshlar bilan ta'minlanmaslik, ishga nomutaxassis shaxslarni qabul qilish va b.) va psixofiziologik (ishning bir xilligi, jismoniy va aqliy zo'riqish va b.) turlarga bo'lingan. Xavfni xarakterlovchi belgilar soni tahlil maqsadiga bog'liq holda ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Shu sababli, xavfni xarakterlovchi belgilar standart tushuncha – «xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari» shaklida talqin qilinadi.

Xavfli va zararli omillar kelib chiqish sabablariga bog'liq xolda fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik ko'rinishida bo'ladi. Shunga bog'liq holda, xavf

potensial (yashirin) va real turlarga bo'linadi. Potensial xavfni yuzaga kelishi birinchi navbatda ishlab chiqarish sharoitiga bog'liq bulib, u xavfni yuzaga keltiruvchi sabablar orqali baholanadi. Tadqiqotimizda ishlab chiqilgan qishloq xo'jalik mashinalaridan foydaladanishdagi xavfsizlik talablari tasnifi bevosita "inson-mashina-muhit" tizimini o'zida aks etadi. Bunda "inson-mashina-muhit" tizimining "inson" elementi dissertatsiyada ishlab chiqilgan qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanishdagi xavfsizlik talablarining "operatorlarning xavfsizlik texnikasi bo'yicha bilimlari" komponentiga, tizimdagi "mashina" elementi "qishloq xo'jalik texnikalarining konstruksiyasi va texnik holati bilan bog'liq talablar" komponentiga va "muhit" elementi "tashqi muhit" komponentiga mos keladi. Tizimda erishiladigan maqsad va natija 100 foiz sog'lom va xavfsiz ish sharoitini yaratgan holda yuqori darajadagi iqtisodiy samradorlikga erishish, baxtsiz hodisalar sonini nol darjaga keltirishdan iborat bo'ladi. Bu maqsadga erishishda tashkiliy tadbirlar muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jalik mashinalari konstruksiyasiga qo'yilgan xavfsizlik talablari "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 18 martdagi №80-son qarori bilan tasdiqlangan "Qishloq xo'jalik texniklari konstruksiyasi xavfsizligi to'g'risida umumiy texnik reglament" asosida ishlab chiqildi. Qishloq xo'jalik texniklaridan foydalanish xavfsizligi talablari esa "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-apreldagi "Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 170-son qarori [9] asosida tanlandi.

Qishloq xo‘jalik mashinalari konstruksiyasiga qo‘yilgan xavfsizlik talablari “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 18 martdagi №80 son qarori bilan tasdiqlangan “Qishloq xo‘jalik texniklari konstruksiyasi xavfsizligi to‘g‘risida umumiy texnik reglament” [8] asosida ishlab chiqildi. Qishloq xo‘jalik texniklaridan foydalanish xavfsizligi talablari esa “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi “Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 170-son qarori asosida tanlandi.

Xavfsizlik talablari bo‘yicha “Inson-mashina-muhit” tizimidagi o‘zaro muvofiqliklar, ya’ni mashina va mexanizmlarning konstruktiv, texnologik, energetik, kinematik va texnik-estetik (dizayni) ko‘rsatkichlari bilan insonning xarakteri, antropometrik ko‘rsatkichlari, sezgi a‘zolari va analizatorlari orasidagi o‘zaro bog‘lanish va muvofiqlik bo‘lishi zarur [2].

Ishlab chiqarish muhiti insonning ish faoliyati va sog‘ligiga ta’sir etuvchi fizikaviy, kimyoviy, biologik, ijtimoiy va turli axborotlar ko‘rinishidagi omillar bilan xarakterlanadi. Inson u yoki bu muhitda o‘zining moddiy yoki ma’naviy manfaatlarini (birinchi galdagi maqsadi) qondirish maqsadida faoliyat olib boradi va yuqorida ta’kidlangan omillar bilan to‘qnash keladi. Shu sababli, insonda o‘zini ushbu xavfli va zararli omillardan himoyalash maqsadi (ikkinchi galdagi) hosil bo‘ladi. Birinchi maqsad ikkinchi maqsaddan ustun kelgan hollarda tavakkalchilikka yo‘l qo‘yadi, ya’ni xavfqa qarshi boradi. Barcha sezgi a‘zolari va analizatorlarning asosiy xarakteristikasi sezish darajasi bilan baholanadi [3].

Tajribalarning ko‘rsatishicha, ko‘pincha ta’sirni sezish darajasi qarshi reaksiya uyg‘otish (his qilish) kuchiga nisbatan sekin o‘zgaradi. Ushbu bog‘lanish Veber-Fexner psixofizik empirik qonuni orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$Y_e = K * \lg(I) + C$$

Y_e – sezish intensivligi;

I – his qilish intensivligi;


K va S – konstanta (o‘zgarmas birlik).

Qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanishda xavfsizlikni tizimli boshqarish maqsadida baxtsiz hodisalarni yuzaga kelish ehtimolligini “inson-mashina-muhit” tizimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ishlab chiqarish jarayonlari davridagi turli xil zararli va xavfli omillar (fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik) ta’sirida o‘zgarishini tizimli tadqiq qilish talab etiladi (rasmga qarang).

Tadqiqotimizda tahlillar natijasida ishlab chiqilgan sxemadan ko‘rinishicha o‘zaro 3 ta komponentdan (inson omili, qishloq xo‘jalik texnikalari konstruksiyasi va ulardan foydalanishga qo‘yilgan xavfsizlik talablari, ishlab chiqarish muhit omillari) iborat bo‘lgan tasnifni bitta tizim sifatida qabul qilishimiz mumkin. Ushbu 3 komponent ta’sirida “inson-mashina-muhit” tizimida texnologik jarayon davrida turli xil xavfli vaziyatlarning yuzaga kelishi jarohatlanishlar va kasb kasalliklariga olib keladi yoki holat o‘zgarishi (texnologik jarayon sifati) bilan izohlanadi.

Qishloq xo‘jalik mashinalari operatorining xavfsizlik texnikasi bo‘yicha bilim darajasining pastligi yoki xavfsizlik texnikasi talablariga rioya etish madaniyatining yetarli darajada emasligi hamda qishloq xo‘jalik mashinalari konstruksiyasi va ulardan foydalanishdagi xavfsizlik texnikasiga amal qilmaslik jarohatlanishlarni keltirib chiqar-

sa, tashqi muhit omillari ta'sirida ko'proq kasb kasalliklari kelib chiqadi.



1-rasm. "Inson-mashina-muhit" tizimida qishloq xo'jalik mashinalari xavfsizligini ta'minlovchi asosiy komponentlar ta'sirida baxtsiz hodisalarni kelib chiqish ehtimolligi algoritmi.

X_1 – inson omili (qishloq xo'jaligi mashinalari operatorining xavfsizlik texnikasi bo'yicha kompetentligi (bilimlari va uni amalda qo'llay olish qobiliyati) bilan bog'liq omillar;

X_2 – qishloq xo'jaligi mashinalarining konstruksiyasiga bog'liq omillar;

X_3 – ishlab chiqarish muhiti ta'siriga bog'liq omillar.

$I_1, M_1, ISHM_1$ - inson, mashina va ishlab chiqarish muhitining mos holda texnologik jarayon boshlanishidan oldingi holati;

$I_2, M_2, ISHM_2$ – inson, mashina va ishlab chiqarish muhitining mos holda texnologik jarayon vaqtida xavfli vaziyatlarga olib keluvchi holati;

$I_3, M_3, ISHM_3$ – inson, mashina va ishlab chiqarish muhitining mos holda texnologik jarayon vaqtida xavfli vaziyatlar natijasida baxtsiz hodisalarni keltirib chiqaruvchi holati.

Ushbu komponentlar o'z o'rnida baxtsiz hodisalarning sabablari ham bo'ladi. Qishloq xo'jalik mashinalaridan foyda-

